

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**“UMUMIY PEDAGOGIKA” KAFEDRASI**

**“MEHRIBONLIK UYLARIDAGI BOLALARIDA MILLIY  
G'URUR HISSINI SHAKLLANTIRISH” mavzusidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Bajardi: 4-kurs talabasi Xidirova M.

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

\_\_\_\_\_ sonli bayonnomasi “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2013 yil

**TERMIZ – 2013**

## **REJA:**

### **KIRISH**

#### **I BOB. MEHRIBONLIK UYLARI TARBIYALANUVCHILARIDA MILLIY G`URURNI TARKIB TOPTIRISH VA TARBIYALASHNING O`ZIGA XOS PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI.**

I.1. Mehribonlik uylariga g'amho'rlik kuchli ijtimoiy siyosatning negizi sifatida.

I.2. Mehribonlik uylaridagi tarbiyalanuvchilarda milliy g`ururni shakllanirishning pedagogik omillari.

#### **II.BOB.MEHRIBONLIK UYLARIDAGI O`QUVCHILARDA MILLIY G`URURNI SHAKLLANTIRISHNING SHAKL VA USULLARI.**

2.1. O`quvchilarda sharqona an`analar asosida milliy g`ururni tarbiyalash

2.2. O`quvchilarda milliy g`ururni tarbiyalashda mehribonlik uyi bilan otaliq tashkilotlarning o`zaro hamkorligi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR.**

### **ADABIYOTLAR RO`YXATI.**

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** O'zbekistonda mustaqillik tantanasidan keyin xalq xo'jaligining barcha sohalarida keskin burilishlar bo'la boshladi. Jamiyadagi iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, ma'rifiy, ijtimoiy, huquqiy va shu kabi yo'nalishlar bo'yicha islohotlar O'zbekiston Respublikasi va uning xalqini butun dunyoga tanitishga hamda tan oldirishga sabab bo'ldi.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov buyuk davlatning kelajagini belgilab beruvchi islohotlarimizning asosiy besh tamoyilni ko'rsatib berdi. Ular xalqimizning o'ziga xos ruhiyati, hayot va turmush tarzi hamda milliy qadriyatlari va an'alariga asoslanganini alohida ta'kidlash lozim.

Ayniqsa, islohotlarning to'rtinchi tamoyili kam ta'minlangan oilalar, nogironlar, yetim-yesirlar, qariyalar va bolalarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan bo'lib, u xalq ruhiyatini mustaqillikni mustahkamlash, rivojlantirish va takomillashtirishga yo'naltirilgan.

Yurtboshimiz "O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari" degan asarida shunday yozadi: "G'animlar nimalar deb safsata sotmasin, O'zbekiston rahbariyati va xalqining tutgan yo'li qat'iy va mustahkam: biz doimo mehr-muruvvat, mehr-oqibat, yurtimizda tinch-totuvlik, xotirjamlikni saqlashga sodiq bo'lib qolaveramiz. Vatandoshlarimiz bir-birlariga yelkadosh, ahil-inoq bo'lib yashashida, yetim-yesirlar, nogironlar, qariyalar va bolalar, qarovsiz va muhtoj kishilarimiz himoyasini tashkil qilishda o'zimizning kuchimizni va mehnatimizni hech qachon ayamaymiz"<sup>1</sup>.

Bu dono fikrlar ma'no – mazmuni yetim-yesirlarni har tomonlama ximoya qilish, ularga mehr-muruvvat ko'rsatish, milliy istiqlol g'oyasi asosida ta'lim tarbiya berish kabi muhim masalalar bilan bevosita bog'liqdir. Zero, yetim-yesirlarga

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Ma'rifat" gazetasi, 1992-yil.

<sup>2</sup> Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Ma'rifat" gazetasi, 1992-yil.

g'amxo'rlik deganda, birinchi navbatda Mehribonlik uylarini qo'llab-quvvatlash nazarda tutilgan.

Boquvchisidan mahrum bo'lgan yetim-yesirlarga g'amxo'rlik qilish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham kafolatlangan. Shuningdek "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun, " Kadrlar tayyorlash milliy dasturi " talablarida ham boquvchisidan ayrilgan bolalarga mehr – muruvvat ko'rsatish va ularni milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi asosida tarbiyalash masalasi qo'yilgan.

" Ta'lim to'g'risida " gi Qonunning 20-moddasida shunday deyilgan: "Yetim bolalar va ota-onalarning yoki boshqa qonuniy vakillarning qarovsiz qolgan bolalarning ta'limim va ta'minoti to'laligicha davlat hisobidan amalga oshiriladi. Yetim bolalar qonun bilan belgilangan tartibda davlat tomonidan qo'llab quvvatlanadi". Bu mustqillik tantanasi va respublika hukumati olib borayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning sharofatidir.

Shuningdek, boquvchisidan u yoki bu sabab bilan mahrum bo'lgan yetim – yesirlarga g'amxo'rlik qilish muqaddas "Avesto"da va Qur'oni Karimda ham, Muhammad payg'ambarimiz hadislarida ham alohida ko'rsatib o'tilgan. Qolaversa, al-Buxoriy, at-Termiziy, Shayx Najmiddin Kubro kabi allomayu ulomalarimiz ham yetim-yesirlarga ko'mak qilish , hayr sadaqa in'om etish savob ekanligidan ta'limot berishgan.

Demak, boquvchisidan mahrum bo'lgan bolalarga ko'maklashish, ularni tarbiyalash o'zbek xalqining azal- azaldan urf-odati va an'anasiga aylangan. Shu ma'noda Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchi bolalarni hae tomonlama muhofaza qilishni davlat tasarrufiga olish kabi muruvvatli siyosatga , milliy qadriyatlar va an'analarimizga asoslangan bo'lib , bu olam humul tarixiy ahamiyatga egadir.

Mustaqillik yillarida mehribonlik uylari faoliyatini yaxshilashga doir maxsus qonunlar chiqdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Vazirlar Mahkamasining Qonun hamda qarorlari , normativ hujjatlari e'lon qilindi. Shu hujjatlar asosida "Mehribonlik uyi to'g'risida nizom" ishlab chiqildiki, bu tarixiy ahamiyat kasb etadi.

O'sha Nizomning 1-qism 3- moddasida shunday deyilgan: “ Mehribonlik uyining asosiy vazifasi oilaviy muhitdan mahrum bo'lgan bolalar va o'smirlarni to'liq ruhiy sog'lomlashtirishga, ijtimoiy mehnat moslashuviga va ijtimoiy-huquqiy himoya qilishga ko'maklashuvchi uy sharoitiga eng ko'p darajada yaqinlashtirilgan muhitni yaratishdir”. Bu vazifani amalga oshirishda , eng avvalo ta'lim-tarbiyaning roli benihoya kattadir. Shunday ekan, nogironlik uylarida ta'lim –tarbiyani ilmiy asosda tashkil etish muhimdir.

Demak Mehribonlik uylarida ta'lim tarbiya ishlarini olib borishning ilmiy nazariy asoslarini tadqiq etish , shakl va usullarini ishlab chiqish davlat ahamiyatiga ega bo'lgan dolzarb masaladir.

To'g'ri, yuqori sinf o'quvchilarini ma'naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalash va oilaviy tarbiya muommolariga bagishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Chunonchi , M. Ochilov , K. Hoshimov , O.Musurmonova , Safo Ochil, M. In'omova, O. To'rayeva , A. Munavvarov, G'. Shoumarov , R. Jo'rayev, M. Haydarov singari olimlarning ilmiy kuzatishlari shular jumlasiga kiradi.

Biroq Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni tarbiyalashga bag'ishlangan hech bir ilmiy kuzatish olib borilmagan . Zero, milliy g'ururni tarkib topdirish va uni tarbiyalash o'z-o'zini anglash , kimligini tarixini bilish bilan bevosita bogliqdir. Darhaqiqat , g'ururi yo'q, o'z qadrini bilmagan kishidan ezgu ishlarni kutish qiyin.

Bas, shunday ekan, bolalar va o'smirlarda milliy g'ururni tarkib topdirish va tarbiyalash hozirgi zamon pedagogika fanining asosiy sabablaridan biridir. Qolaversa, Mehribonlik uylari o'smirlarida milliy g'ururni milliy istiqlol g'oyasi mafkurasi asosida tarbiyalashning samarali yo'l hamda usullarini ishlab chiqish va ularni ilmiy – nazariy jihatdan asoslash vazifasi ko'ndalang turibdi.Bitiruv malakaviy ishning mavzusi mehribonlnk uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'urur hissini shakllantirish.

**Bitiruv malakaviy ishning maqsadi** mehribonlik uylaridagi bolalarda milliy g'ururni shakllantirishning usul va shakllarini ishlab chiqish .

**Bitiruv malakaviy ishning ob’ekti** mehribonlik uylaridagi bolalarda milliy g’ururni shakllantirish jarayoni Bitiruv malakaviy ishning predmeti. Mehribonlik uylaridagi bolalarda milliy g’urur hissini shakllantirishning mazmuni, shakl va metodlari vositalari.

**Bitiruv malakaviy ishning ilmiy farazi** Agarda:

- Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarda milliy g’ururni shakllantirishning pedagogik omillari boyitilsa.
- Mehribonlik uylaridagi bolalarda milliy g’ururni shakllantirishning zamonaviy metod va vositalaridan samarali foydalanilsa;
- Mehribonlik uylaridagi bolalarda milliy g’ururni shakllantirishda tarixiy milliy, qadriyatlardan foydalanilsa o’quvchilarda milliy g’urur hissi ortadi.

**Bitiruv malakaviy ishning vazifalari.**

Mehribonlik uylaridagi tarbiyalanuvchilarda milliy g’urur xissini shakllantirishda ta’lim-tarbiya tarixi tajribalarini o’rganish asosida tahlil qilish;

- O’quvchilarda milliy g’urur hissining shakllanganligining mavjud holatini o’rganish;
- Mehribonlik uylaridagi o’quvchilarda milliy g’urur hissini shakllantirishning shakllari, metodlari, vositalarini belgilash.
- Mehribonlik uylaridagi tarbiyalanuvchilarda milliy g’urur hissini shakllantirishga yo’naltirishgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish va ularning samaradorlik darajasini aniqlash.

**Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosi:** O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni, “kadrlar tayyorlash milliy dasturi”

**Bitiruv malakaviy ishning metodlari.**

Pedagogik tahlil:

Pedagogik kuzatuv:

Tajribalarni o’rganish va umumlashtirish.

Tajriba sinov.

**Bitiruv malakaviy ishning yangiligi.**

- Mehribonlik uylaridagi tarbiyalanuvchilarida milliy g'urur hissini shakllantirish mazmuni vositalari;
- Mehribonlik uylaridagi o'quvchilarda milliy g'urur shakllantirishning shakllari, metodlari, vositalari belgilab berildi va pedagogik shart-sharoitlari aniqlandi.
- Milliy g'urur hissini shakllantirishga doir tavsiyalar ishlab chiqilib ularning samaradorlik darajasi aniqlandi.

**Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati:**

Mehribonlik uylaridagi o'quvchilarni milliy g'urur hissini shakllantirishga doir ilmiy – pedagogik ma'lumotlar bilan boyitildi.

O'quvchilarda milliy g'urur hissini shakllantirishning mazmuni, shakli, metodlari vositalari, belgilab berildi.

Bu o'z navbatida ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi.

**Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi.**

Kirish, ikki bob umumiy xulosa va tavsiyalar foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

## **I Bob. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni tarkib toptirish va tarbiyalashning o'ziga xos pedagogic xususiyatlari.**

### **I-1 .Mehribonlik uylariga g'amho'rlik kuchli ijtimoiy siyosatning negizi sifatida.**

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikdan keyin hukumatning barcha ichki va tashqi siyosati, islohatlarning birinchi bosqichida olib brogan olamshumul siyosati va ikkinchi bosqichda amalga oshirayotgan tarixiy-umumbashariy ishlari tufayli butun dunyoga tanildi va tan olindi. Bu o'zbek xalqining milliy g'ururidir.

Milliy g'urur haqida fikr yuritar ekanmiz, avvalo, g'urur nima?, so'ngra milliy g'urur mazmuni qanday? Degan savollarga to'xtalish zarur. Chunki, milliy g'ururni tarkib toptirish va tarbiyalash kabi pedagogik-psixologik muammoni hal qilish zikr qilingan so'z va so'z birikmalari ma'nosi bilan bevosita bog'liqdir.

G'urur so'zi faxr, iftixor, faxrlanish, mag'rur, quvonch, quvonish kabi ma'nolarni anglatadi. Mumtoz she'riyat va nasrlarda, faxriya, ballada va dostonlarda, xalq og'zaki ijodida ham yuqoridagi so'zlar ma'nodosh (sinonim)laridan foydalanilgan.

Ba'zan g'rur so'zi kibrlanish, kibru havo, gerdayish, o'ziga bino qo'yish, manmanlik singari ma'nolarni ham tashiydi. Biz ijobiy ma'nodagi g'urur haqida fikr yuritamiz.

Milliy g'urur muayyan millatning tarixiy o'tmishidan, milliy qadriyatlaridan, jaxon miqyosida asrlar osha tan olinib kelinayotgan fan, din, adabiyot, san'at va madaniyat yutuqlari va ularni yaratgan daholardan, tarixiy obida va yodgorliklaridan, milliy urf-odatlarini, an'alaridan, ota-Vatanidan, dono xalqidan, Vatanining go'zal o'tmishi va bugunidan milliy xalq qahramonlaridan faxrlanish va iftixor qilish tuyg'usidir.

Darhaqiqat, "Milliy g'urursiz hech bir millat millat sifatida ravnaq topolmaydi"<sup>2</sup>.

Kimningki g'ururi yo'q,

---

<sup>2</sup> O'zbekistonning milliy mafkurasi, T., "O'zbekiston", 1992, 75- bet

Onikim shuuri yo'q.

G'urur o'zini o'zi anglash, milliy g'urur esa milliy o'z-o'zini anglash bilan bevosita bog'liqdir. Tilini, dinini, tarixini, ajdotlarining mazmunli hayotini, olamshumul kashfiyotlarini yaxshi bilgan, o'rgangan kishigina o'zining kimligini anglashi mumkin va qalbida, vujudida va ruhida faxrlanish tuyg'usi vujudga keladi. Shuningdek, unda ajdodlariga sodiq qolib, "... o'zini kamol toptirishga bo'lgan intiliash insonning g'ururini, uning haqiqiy fazilatlarini yuksaltiradi"<sup>3</sup>. Darhaqiqat, agar yuragida g'urur bo'lsa, inson o'zidagi bor

imkoniyatlarni ishga solib, irodasini raso ushlab, barcha xislat va fazilatlarini yuzaga chiqarishga intiladi.

Yurtboshimiz milliy g'urur haqida shunday yozadi: "O'zbek xalqining yuksak milliy qadr-qimmatini, or-nomusi va shon-sharafi uning ota mehribonligi va of vijdonligiga asoslangandir. Biz bundan keyin ham o'zbeklarning milliy g'ururini ma'naviy yuksaltiramiz, shu bilan birga, umumiy Vatanimizda biz bilan birga yashovchi va O'zbekiston Respublikasiga sadoqatli bo'lgan boshqa barcha xalqlar bilan birodarlikka intilamiz"<sup>4</sup> Zotan, milliy g'urur millatning qadr-qimmatini, or-nomusini, shon-sharafini tushunib yetgan, anglagan insondagina bo'ladi. Demak, har bir ziyoli, har bir pedagog oldida yosh avlod qalbida milliy g'ururni tarkib toptirish, shakllantirish vazifasi turibdi. Ayniqsa, Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni tarkib toptirish va tarbiyalash nihoyatda muhim bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Chunki, ular ota-onadan, oiladan va mahalladan mahrum bo'lgani uchun ko'ngli o'ksikdir.

Mehribonlik uyiga qabul qilingan bolalar qismati nega shunday, degan ma'naviy-ijtimoiy muammo ko'tariladi. Zero, mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarimiz qayta tiklanmoqda, insoniy qadr-qimmat qaror topyapti, mehr-muruvvat iplari mustahkam bog'lonmoqda. Bolalarning ota-onadan mahrum bo'lish taqdiri nima bilan bog'liq?

---

<sup>3</sup> **Karimov I.A.** O'zbekistonning o'z istiqloq va tarqqiyot yo'li, T., "O'zbekiston", 1992, 75- bet

<sup>4</sup> O'sha joyda, 75- bet.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, respublikamiz miqyosida kuniga 500 nafardan ortiq yigit-qiz oila qurishmoqda. Har soatda 70 nafardan ortiq bola tug'ilyotganligi ma'lum. Lekin oiladagi qo'ydi-chiqdilar ham oz emas.

Surxondaryu viloyati Termiz shaxridagi 12-sonli mehribonlik uyida

Jami- 85 nafar tarbiyalanuvchilar bor

Qizlar- 24

O'g'illar-61

Otasi yo'qlar-8

Onasi bor otasi o'lgan bolalar- 8

Otasi bor onasi o'lgan bolalar-6

Ota-ona huquqidan mahrum etilgan bolalar-12

Ota-onasi qamoqda bo'lgan bolalar-1

Ota-onasi tashlab ketgan bolalar-8

Kam taminlangan oila bolalari-6

Ota-onasi nogiron bolalar-1

Ota-onasi ruhiy kasal bolalar-9

Ajrashgan oilalardagi bolalar-4

Narkalogik hisobda turadigan ota—ona bolalari-2

Yolg'iz onalar bolalari-20

Ayrim ota-onalarning ma'naviy-axloqiy jihatdan masulyatsizligi tufayli shunday qo'ydi-chiqdilar shuningdek ayrim ota-onalarning bag'ritoshligi sababli gunohsiz bolalar yetim qarovsiz qolib mehribonlik uylaridan panox topmoqdalar. Darhaqiqat, mamlakatimizdagi 28 ta mehribonlik uylarida ota-onasining boquvidan mahrum bo'lgan 3287 nafar yetim bolalar tarbiyalanmoqda. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki yetim-yesirlarga qanchalik g'amxo'rlik ko'rsatilmasin bu hech qachon oila va ota-onalarning o'rnini bosolmaydi. Shunday ekan bu mummoni ijobiy hal etish uchun quyidagi zaruriy muammolarga diqqat e'tiborini qaratmoq lozim:

- ma'naviy-axloqiy tarbiya va axloq odobga od tub islohatlarning oiladan boshlash ularni musulmon e'yiqodi asosida tashkil etish va kuchaytirish;

- -bolalarni barkamol inson qilib tarbiyalashda ro'y bergan va ro'y berayotgan qusurlarni bartaraf etish va to'g'ri yo'l qo'yish uchun mazkur muammo o'tmishda qanday bo'lganligi va hozirgi kunda nimalarga amal qilayotganligini tahlil etish;

- -tahlil natijalari asosida ilmiy xulosalarga tayanib oilada tarbiya konsepsiyasini yaratish va amaliy taklif berish.

**Bitiruv malakaviy ish jarayonida** bolalarning yetim bo'lib qolishi bilan bog'liq salbiy holatlarning quyidagi sabalari aniqlangan:

-inson hayotini mazmunini tashkil etuvchi oila va uning a'zolariga oila turmush tarziga oila ravnaqiga bo'lgan noto'g'ri munosabat:

-oilada ota-bobolarimizning xalqimiz yaratgan an'ana, urf-odatga nopisandlok bilan qarash.

Bunday kamchiliklarni bartaraf etish uchun Mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan bolalarning psixologiyasini chuqur o'rganish lozim . Shu boizdan "Mehribonlik uylarining asosiy vazifasi oilaviy muhitdan mahrum bo'lgan bolalar va o'smirlarni to'liq ruxiy sog'lomlashtirishga ishtemoiy mehnat moslashuviga va ijtimoiy –huquqiy himoya qilishga ko'maklashuvchiuy sharoitiga eng ko'p darajada yaqinlashtirilgan muhitni yaratishdir ”<sup>5</sup>. O'zbek xalqining asrlar davomida to'plangan tarbiya haqida tajribalari fikrlari g'oyat ko'pdir. Bolalarni bosiqlikka, sofdillikka, ilmli bo'lishga o'rgatish, ahloqiy poklik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi sifatlarni shakllantirishga katta ahamiyat berib kelingan. Oila tarbiyasi, oilada bola tarbiyasidagi ota-onaning roli, mehr-oqibat, oiladagi o'zbekona urf-odatlar, an'analarning bolalar tarbiyasiga bevosita ta'siri pedagogika tarixida yorqin ko'rsatilgan. O'zbek xalqining tarixiga murojaat qilar ekanmiz, qiziqarli bir holatni kuzatamiz: hamma davrda, har doim o'zbek xalqida ota-onasidan judo bo'lib, qarovsiz qolgan bolalarga g'amxo'rlikni o'z zimmasiga olish fazilati an'anaviy ravishda rivojlanib kelgan. Boquvchisini yo'qotgan bolalar barcha davrlarda ham

---

<sup>5</sup> Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 18- fevraldagi 59-sonli qaroriga ilova. "Mehribonlik uyi to'g'risida Nizom". "Ma'rifat" gazetasi,1995-yil 29-mart.

jamiyatni tashvishga solgan. Bu muammoni yechish Markaziy Osiyoda hatto davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, XI asrda yashab ijod etgan Yusuf Xos Hojib davlatning mas'ul kishilari qashshoq, tul-yetimlarga mehribon, ko'ngilchan bo'lish lozimligini, xususan, ularning ehtiyojlariga alohida munosabatda bo'lishni uqtirgan. Yusuf Xos Hojib ana shu toifaga to'g'ri va iliq munosabat chin adolatning mezonlaridan biridir, deydi. Ayni shu fikrlar Ahmad Yassaviy hikmatlariga ham xosdir:

G'arib, faqir yetimlarni ko'nglin ovlab,  
Ko'ngli qattiq xaloyiqdan qochdim mano.

Yoki:

G'arib, faqir yetimlarni ko'nglin shodmon,  
Halqalar qilib aziz joning ayla qurbon.  
Taom topsang, shoning birla qilg'il mehmon,  
Haqdin eshitib bu so'zlarni aytdim mano<sup>6</sup>.

Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy "Ixlosiya" madrasasi qoshida ota-onasidan yetim qolgan bolalar uchun maktab ochgan va ularni o'z hisobidan kiyim-kechak, oziq-ovqat va o'quv qurollari bilan ta'minlagan. Alisher Navoiyning shu xayrli ishi keyinchalik an'anaga aylanib ketgan.

Bu an'analarni buzganlar jamoat ahli tomonidan qattiq qoralangan. Jumladan, XVII asrda yashagan mashhur shoirimiz Turdi Farog'iy shunday yozadi:

Beklar o'ldi, haromzodalari nosofi,  
Bemehosil chala nomand qalin nadfi,

---

<sup>6</sup>Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat, G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, T.. 1992, 21-22-betlar.

Yegani haqqi yetim madrasalar avqofi,  
 Bularning oldida bordir bo'rining insofi,  
 Bu olamdin ketayin bosh olib mulk Iroq.

Yetimlarning boshini silab, ularning tarbiyasiga alohida e'tibor bergan Qo'qon xoni Xudoyorxon davrida yetim-yesirlar, ota-onasidan yetim qolgan bolalarni saroyga to'plab tarbiyalaganlar. Ba'zi nochor oilalar ham bolalarini xon tarbiyasiga topshirishgan. Chunki saroyda bolalar o'qitilgan, sarpo, kiyim-kechak, oziq-ovqat bilan ta'minlab turilgan.

Tarixiy hujjatlarni ko'zdan kechirsak, xazinachilar, qo'riqchilar, kichik lashkarboshilar ismida "sag'ir" qo'shimchasi uchraydi. Demak, yetim-yesirlar, qarovsiz qolgan bolalar taqdiri bilan davlat ham shug'ullangan. Bu ish jamoa va jamiyat uchun ham katta savob, deb qabul qilingan. Manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, qadimdan xalqning yetimlar haqida o'z fikri, o'z qarashlari bo'lgan. Bular jumlasiga quyidagilar kiradi:

**Yetimlik nazoratsizlik demakdir.** Yetimlik bola tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda uning tegishli axloqiy-ma'naviy fazilatlaridan bebahra qolishiga sabab bo'ladi. Shunga ko'ra, ayrim noxush xususiyatli va fe'l-atvorli kishilarni xalq orasida yetimlik bilan bog'liq holda talqin qilinishini kuzatish mumkin.

**Yetimlik-kishining ijtimoiy-ma'naviy imkoniyatlariga to'siqdir.** Chunki, bunda ota-ona madadi, ularning himoyasi bo'lmaydi. Bu faqat iqtisodiy jihatdangina emas, balki ijtimoiy-ma'naviy jihatdan ham kuchini ko'rsatib turadi. "Ot oriqlikda, qiz yetimlikda ko'rimsiz", "Yetim boy bo'lmas, boy bo'lsa ham boyvachcha bo'lmas".

**Yetimlik-ma'naviy majruhlikdir.** Xalq yetimlar ko'nglining o'ziga xos jarohatlarini yaxshi tasavvur etadi. Shuning uchun ham ularga panoh va tayanch bo'ladigan vositalarga ishora qiladi. Ularning ko'nglini olish uchun yo'l ko'rsatadi: "Yetimning ko'ngli yarim".

**Yetimlik ijtimoiy himoyadan xolidir.** Zero, yetimlikdagi bolalar deyarli huquqsiz kishilar bo'lishgan. O'tmishimizda ularning huquqini muhofaza etish bilan mahsus tashkilotlar deyarli shug'ullanishmagan. “Yetim o'z ishini qilib, kishi minnatini eshitar”, “Yetim qizga yelpig'ich ham chikora”, “Yetimning og'asi ko'p, joniga foydasi yo'q”.

**Yetimlik iqtisodiy nochorlikdir.** Ijtimoiy muhofazasizlik yetimlar ahvolini qiyinlashtirgani ma'lum. Shunga ko'ra, ularning ko'pchiligi, hatto qorin to'ydirish uchun ham talay azob-uqubatlar kechirishgan. “Yetimning bir to'ygani, chala boy bo'lgani”.

**Yetimlik jamiyat e'tiborini qaratish shart bo'lgan hodisadir.** O'zbekona insoniylik, bolajonlik, shu xalqqa xos bo'lgan kuyunchaklik yetimlar manfaatini hech bo'lmasa jamoatchilik asosida himoya qilishga undab kelgan. Bir qator maqollarda ana shu ezgu ruh balqib turadi: “Yetimni yig'latma”, “Yetimni yetim dema”, “Yetimning haqini ema”, “Yetimning haqi yeti daryoni quritgan”, “Sag'irning haqi-tangrining o'qi”.

**Yetim.** Ota-onasi yoki ulardan biri o'lgan bola. Xalq orasida ota-onasi vafot qilib, yolg'iz qolgan bola “Chin yetim”, onasi bilan qolgan bola “Gul yetim”, otasi bilan qolgan bola “Shum yetim”, ayrim hollarda otasi yoki onasi tomonidan tashlab ketilgan bolalarni “Tirik yetim” deb atashganlar.

Jahonda ko'pgina xalqlarda bo'lgani kabi Markaziy Osiyo xalqlarida ham bola yetim bo'lib qolsa, ularni qarindoshlari yoki hamqishloqlari, mahalladoshlari o'z qaramog'iga olib tarbiyalaganlar. U “Asrandi bola” deb atalgan.

Darhaqiqat, yetim bolalarni asrab olish, ularga homiylik qilish o'zbek xalqining an'anasi bo'lgan. Xalqimiz shu ezgu xislatga hamisha sodiq qolgan.

Sobiq sho'ro davlati davrida bolalar uylari, turli internatlar ochilgan. O'sha muassasalarga boquvchisidan mahrum bo'lgan bolalar qabul qilingan va tarbiyalangan. Ammo bundan ko'zlangan maqsad qanday edi? Bolalar uyidagi yetimlar milliy tarbiya an'alaridan butunlay uzoq bo'lgan. Ularni qaysi g'oya va mafkura asosida tarbiyalash bolalar uylari tarbiyachi-o'qituvchilariga bog'liq. Bolalar uylaridagi ta'lim-tarbiya milliylikdan tamoman uzoqlashgan. Sobiq kommunistik

tarbiya g'oyalari va mafkurasi bolalar ongiga singdirilgan. Milliy qadriyatlar va an'analar, milliy fikr va tafakkur, milliy g'urur va iftixordan butunlay uzoqlashtirilgan. Ko'pchilik hollarda ular hatto o'z ona tillarini ham bilmaganlar. Bolalar uyida tarbiyalangan yetimlar to'tiqush yoxud manqurt bo'lib yetishganlar.

Hozirgi kunda respublikamizda 35 ming nafardan ortiq turli sabablarga ko'ra yetimlikka duchor bo'lgan o'g'il-qizlar 26 ta Mehribonlik uylarida davlat ta'minoti hisobidan ta'lim-tarbiya olishmoqda. Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchilarning ma'naviy imkoniyatlari cheklanganligiga qaramay, u yerda tarbiyalanuvchi o'smirlarda milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ulari ularning ba'zi harakatlarida aks etib turadi. Lekin ularda Vatan, milliy g'urur haqidagi fikrlar cheklangan. Ular Vatan va Vatanni ulug'lovchi she'r, hikoya va boshqa badiiy asarlarni bilishadi-yu, milliylikning mohiyatini yaxshi anglashmaydi. Bu tuyg'ularni tarbiyalash yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi tadqiqot jarayonida aniqlandi.

Demak, Mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan o'smirlarda milliy g'urur va vatanparvarlik sifatlarini shakllantirish zarur. Buning uchun:

- milliy urf-odat va an'analarimizni Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o'smirlar hayotiga kengroq joriy etish;
- o'smirlarda milliy g'ururni shakllantirish maqsadida xalq pedagogikasidan samarali foydalanish;
- umuminsoniy qadriyatlarimizni va milliy merosimiz, adabiyot va san'atga oid ma'naviy va ma'rifiy tadbirlarni ko'paytirish zarur.

Ajdodlarimizning yetim-yesirlarga mehr-muruvvatli, mehr-oqibatli, saxovatli, mehr-shafqatli bo'lishgani bizlarga ayon. Xalqimizning bu ma'naviy-axloqiy qarashlari doimiy an'anaga aylanib ketgan. Shu fikrimizni tasdiqlash maqsadida bir necha kishilar bilan suhbatlar o'tkazdik.

Badiiy asarlarda ham yetimlik muammosi, o'smirlar dunyosi, g'urur tuyg'usi, vatanparvarlik aks etgan. Biz ularni tahlil qildik. Masalan, G'.G'ulomning "Yodgor", Xudoyberdi To'xtaboevning "Besh bolali yigitcha", Raxmat Fayziyevning "Hazrati inson", Shuhratning "Yetim boshini silaganlar" kabi qissa va romanlarida turli tavsifdagi qahramonlar orqali yetimlar hayoti aks ettirilgan. Polyak pedagogik Ide

Merjyanning “Oyi, meni yaxshi ko’rasizmi?” degan kitobida bolalar uyida tarbiyalanuvchi yetimlarning ahvoli, ularning ma’naviy ehtiyojlari chuqur bayon etilgan. Ayniqsa, G’.G’ulomning ikkinchi jahon urushi davrida yozgan “Sen yetim emassan” she’ri badiiy yuksak, mazmun yo’nalishi ixcham, ma’naviy-ruhiy jihatdan juda ta’sirchan bo’lib, pedagogik-psixologik jihatdan tarbiyaviy salmoqdor she’riy balladadir.

Yurtboshimiz urush tufayli ota-onasidan ayrilgan yetim bolalar, urush va ta’qiblar qurbonlari har doim O’zbekistondan boshpana topganliklari, shuningdek, o’zbek xalqining do’stlik, mehmondo’stlik, mehribonlik an’analari, va nihoyat, shu g’oyalarning “Sen yetim emassan” she’rida o’z ifodasini topgani xususida shunday yozadi: “O’zbekistondan Sharq madaniyatining eng yaxshi an’analari yo’lidan borib, mehmondo’stlik va ahil do’stlik eshigini keng ochdi, badarg’a qilinganlar, vatanidan judo bo’lganlar, urushlar va ta’qiblarning qurbonlari har doim O’zbekistonda boshpana topganlar, xalqimizning mehribonligidan bahramand bo’lganlar. “Sen yetim emassan”-urush yillarida o’zbek qalbidan ota-onasidan va kindik qoni to’kilgan xonadonidan judo bo’lgan bolalarga qarata ana shu yurak so’zlari yangradi. O’sha kezlarda xalq shoiri G’.G’ulom quyidagi dard so’zlarini yozgan edi:

Sen yetim emassan,  
 Tinchlan, jigarim,  
 Quyoshday mehribon  
 Vatanning – onang,  
 Zaminday vazminu  
 Mehnatkash, mushfiq,  
 Istagan narsangni tayyorlaguvchi  
 Xalq bor – otang bor”<sup>7</sup>.

---

<sup>7</sup> **Karimov I.A.** O’zbekistonning o’z istiqloq va taraqqiyot yo’li, T., “O’zbekiston”, 1992, 66-67-betlar.

Yurtboshimiz tilga olgan bu she'r o'zbek xalqi mehribon qalbining ko'zguvidir. Yetim-yesirlarga muruvvat ko'rsatish, boshini silash, boshpana berish asrlar osha yetib kelgan o'zbeklarning milliy an'anasidir.

Ommaviy axborot, oynai jahon, radio eshittirishlar, jurnal sahifalari, ro'znomalar orqali kuzatishlardan ma'lumki, har yili mart oylarida Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchilar uchun sovg'a-salomlar beriladi va ularga konsert dasturlari namoyish qilinadi. Shuningdek, "Al'manax" ko'rsatuvida majruh bolalar internatidagi shart-sharoitlar hamda majruhlik sabablari yoritiladi. Reshittirishlarda mehr-oqibat, muruvvat, yetim-yesirlarga yordam, Hadisi Shariflardan namunalar o'qiladi. "Ma'rifat" ro'znomasida ham Mehribonlik uylariga aloqador tarixiy dalillar, u yerdagi bolalar hayoti, davlat ta'minoti, bolalarning noto'g'ri tarbiya qurboni bo'lgani kabi mavzular E.Alijanov, Sh.Yo'ldoshy, Muhayyo O'ktamxon qizi va boshqalar tomonidan yoritilgan. Bu ma'lumotlar hozirgi vaqtdagi boshqa muammolarga qaraganda juda oz bo'lib, aynan Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchilarning milliy g'urur tuyg'usini o'stirishga qaratilmagan.

Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o'smirlarning milliy g'ururini shakllantirish uchun bu jarayonning samaradorligini ta'minlovchi pedagogic-psixologik omillarni aniqlab olish taqozo etiladi. Kuzatishlarimiz natijasi shu pedagogic vositalarni quyidagicha aniqlashga yordam berdi:

- ta'lim-tarbiya mazmuni, shakl, usul va vositalarning milliyliigi;
- ijtimoiy omillar: ta'lim-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish, mustaqillik, erkinlik, oshkoralik va tenglik;
- hududiy omillar: o'smir yashayotgan o'lka milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analari, boyligi, tarixiy o'rni va ahamiyati;
- Mehribonlik uyi va sinf moddiy-texnika bazasi:

Mehribonlik uyining kutubxona fondi, muzey, ma'naviy, milliy qadriyatlarni, o'zbekona urf-odatlarini va an'analarni o'rganish markazlari, to'garak faoliyati mazmunining rang-barangligi.

Ushbu omillarning pedagogik jihati ularning o'zlariga xos xususiyatlari hisobga olingan taqdirda, milliy g'urur tuyg'ularini his etishda va uning tizimini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'smirlarda milliy g'ururni shakllantirish tizimini o'rganishda, ishlab chiqishda har bir mashg'ulot, tarbiyaviy tadbirlar, to'garaklar ular ongida milliylikning chizgilari (manzarasi) haqidagi tasavvurini o'zgartirish, shahsiy hayot, jamiyatda o'z o'rnini topishga erishish, milliylikning tarbiyaviy mohiyatini anglab yetish malakalarini shakllantirish turli faoliyatning natijalarini oldindan ko'ra bilishga o'rgatish, tabiat va jamiyat, inson va u yashaydigan muhit haqida ilmiy bilim bilan qurollantirish kerak.

Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o'smirlarning milliy g'ururini shakllantirish maqsadi va vazifalarini ijobiy hal etishda ularning tarbiyasiga, tavsifiga xos milliy muhit yaratish va yuqoridagi barcha omillarga tayanish lozim. Chunki tarbiyachi va o'smir hamkorligidagi faoliyatning samaradorligini oshiruvchi, ularning talab va ehtiyojlarini qondiruvchi muhit zarurdir.

Mehribonlik uylarida milliy muhitning o'ziga xos mazmunga ega bo'lishi davr taqozasidir. Bu mazmun zamirida o'smirlarda milliy g'ururni shakllantirish yotadi: umuminsoniy va milliy qadriyatlar; urf-odat va an'analar; diniy va dunyoviy adabiyot namunalari, xalq donishmandligi durdonalari negizini tashkil etgan sharqona tarbiyaning asosiy sifatlari; insonparvarlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik; mehr-oqibat, ota-onaga hurmat, saxovat, iymon-e'tiqod va shu kabilar.

Hozirgi kunda matbuot va ommaviy axborot vositalari, kino, teatr repertuarlari milliy mazmunda tashkil etilmoqda, boyib bormoqda. Ularning butun faoliyati jamiyatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy o'zgarishlarni insonlar ko'z o'ngida gavdalantirish, milliy xarakterni shakllantirish, ma'naviyatimiz sarchashmalaridan bahramand etish, g'ururlanishimizga asos bo'lgan milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz, tarixiy meros va asarlarimiz, tilimizni, qadriyatlarimizni qaytadan tiklashga, ularga nisbatan mehr-muhabbatni shakllantirishga erishishga qaratilgan. Suhbatlar, og'zaki savol-javoblar orqali ma'lum bo'ldiki, o'smirlar

axloqiy, ma'naviy, tarixiy-adabiy, milliy qadriyatlar, adabiyot va san'atga doir materiallarni qiziqib o'qishar, tinglashar, tomosha qilisharkan. "Odobnoma", "Javohir sandig'i", "Xadislardan namunalar", "Rivoyat", "Shaxs va bahs", "Donon bobo davrasida" kabi ko'rsatuv va eshittirishlar, tarixiy shaxslar, buyuk allomalar: ibn Sino, Navoiy, A. Qodiriy va boshqalar hayoti va ijodiy faoliyatlari haqida ma'lumot beruvchi materialllarni sevib tinglar va tomosha qilishar ekan.

Matbuot sahifalaridan esa ular diniy-axloqiy tafsifdagi, yoshlar hayotini aks ettiruvchi vatanparvarlik, insoniylik, mehr- muhabbat, oqibat, qonun, jisomniy tarbiya, sport, sog'lomlashtirish, jaxon yangiliklari va boshqa har xil materiallarni qiziqib o'qishar ekan.

Shu bilan birga, Mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan o'smirlarda oila va hayotga, davlat g'amxo'rliqi, mehnatga, o'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan muhabbatlari darajalarini aniqlash maqsadida quyidagi so'rov-savollaridan foydalandik.

Davlatni boshqarishda juda bir muhim masala borki, u hal qilinsa va unga muttasil amal qilinsa, davlatning obro'siga obro' qo'shiladi, shuhrati tobora orta boradi. Agar shu zaruriy masala hal qilinib, yanada ravnaq topsa, davlat ichki siyosatining barcha sohalarida yuksalish bo'laveradi, shu zaminda ahloqiy-ma'naviy yuksalish salmog'i ortaveradi. Bu kuchli ijtimoiy siyosatdir.

Shu o'rinda Muhammad alayhissalomning ikki – uch hadislarini keltirish zarur. Chunonchi: "Men yetimning kafilligini olgan odam bilan jannatda birga bo'lurman", "Beva xotinlarga va miskin-bechoralarga yordam beruvchi kishi go'yo Tangri yo'lida jihod qiluvchi yoki kechalari ibodat qiluvchi, kunduzlari ro'za tutuvchilar bilan barobardir".

"Qarovsiz qolgan mo'minlar oilalariga kechayu kunduz moddiy yordam ko'rsatib yuruvchi odamning gunohlarini Tangri kechirib yuboradi"<sup>1</sup>.

Shu uchta hadis mamlakatdagi ijtimoiy siyosat bo'yicha deyarli barcha narsalarni o'z ichiga qamrab olgan. Birinchi hadisda yetim-yesirlarga moddiy, ma'naviy va ma'rifiy yordam ko'rsatish, ularni katta qilish, oyoqqa qo'yish va, nihoyat, jamiyatning munosib kishilari qilib tarbiyalash vazifalari qo'yiladi. Bu

insonparvarlikning juda yaxshi namunasidir. Ikkinchi hadisda beva qolgan ayollar, bizning hozirgi tilimiz bilan aytganda, yolg'iz onalar, ularning farzandlariga yordam ko'rsatish g'oyasi ilgari suriladi. Bizningcha, hadis faqat pokiza va halol yolg'iz onalarni nazarda tutyapti. Suyuq oyoq ayollarni emas, albatta. Shuningdek, bu hadis miskin-bechoralarga ko'maklashishga chaqiradi. Shunday odamlar bo'ladiki, qandaydir ofatga uchrab yoki og'ir kasallik tufayli, yoki mayib-majruh bo'lib, xullas, mehnatga layoqatsiz bo'lib qolishi sababidan har tomanlama nochor ahvolga tushib qoladilar. Bu tabiiy holdir. Shunday odamlar g'oyat miskin-bechoralik azobini tortadilar. Ular ham, insonlaru davlat e'yibor nazaridan qochmasliklari lozim. Uchinchi hadis qarovsiz qolgan oilalarga g'amxo'rlik qilish kabi mo'tabar va insonparvarlik vazifasini qo'yadi. Shu hadislar ma'no-mazmunida qariyalarga, talabalarga yordam berish masalalari ham turibdi.

Abu Muso at-Termiziy hadislaridan birida shunday deyiladi: “Bir ayol ikki qizchasini yetaklab, uyimizga kirib keldi va yemak tiladi. Uyda bir dona hurmodan boshqa hech narsa yo'q edi. Uni berdim. Ayol uni olib, ikkita qizchasiga berdi. O'zi yemadi. Keyin o'rnidan turib chiqib ketdi.

Bu haqda Rasulloh (Sallollohu alayhi vasallam)ga gapirdim. Rasulloh: “Kimgaki olloh taolo qiz farzandlar ato etgan bo'lsa, ular unga do'zaxdan panoh-parda bo'ladi”,-dedilar”.

Endi uning boshqa hadisiga e'tibor bering: “Sahl ibn Sa'd rivoyat qilishicha, Hazrat Rasulloh sallollohu alayhi vasallam shunday dedilar: “Yetimni tarbiya qilgan kishi jannatda men bilan birga, yonma-yon shunday bo'lamiz”, deb ikki ko'rsatkich va o'rta barmoqlarini juftlab ko'rsatdilar”.

At-Termiziy birinchi hadisda qiz bolalar tarbiyasining og'irligi va ularga yanada kuchliroq e'tibor berish zarurligiga ishora qilyapti. Bizning bu boradagi milliy tarbiya an'analarimiz asosiy o'rinlardan birini egallagan. Chunki qizlar ko'ngli yarim deb qaralgan. Zotan, qizlarning ko'ngli yarim bo'ladi. Boshqa hadisida at-Termiziy yetimlar tarbiyasiga diqqat-e'tiborini qaratadi. Axir, bola o'zining xohish-irodasi bilan emas, achchiq taqdir va qismat natijasida yetim bo'lib qolgan. Zotan, yetim-yesirlarga ko'maklashish iymondandir.

At-Termiziy boshqa bir hadisida “haqiqiy sadaqa faqir-bechoralarga qilingan sadaqadir” deb ta’lim beradi. Shu o’rinda islom dini va tasavvuf ilmining xalq o’rtasidagi obro’-e’tibori nihoyatda ustun bo’lganini alohida ta’kidlash lozim. Buning sababi, ularda ijtimoiy masalalarda katta ahamiyat berilgani va amaldagi ijrosi nazorat qilinganligidadir.

Shu narsaga, ya’ni ijtimoiy muhofazalash qoida-qonunlariga ajdodlarimiz doimiy amal qilib kelganlar. Shu fikrimizga ulug’ shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning quyidagi o’gitlari dalildir: “Qariyalar muhtojlikka tushib qolsa, kasb-hunar qila olmasa va tilashga tili bormasa, ularga rahm-shafqat qilishga shoshil va qo’lingdan kelgancha ehson qil. Lekin kambag’al yigit ketmon chopra olsa, o’tin tashimoqni uddalasa, unga ehson qilmoq-isrof qilmoqdir”.

Alisher Navoiy ikki masalani qo’yadi. Qariyalarga xayr ehson qilish, ya’ni ularni moddiy va ma’naviy jihatdan qo’llab-quvvatlash, ularga rahm-shafqat qilish, bu insonparvarlik aqidasi. Biroq, mehnatga layoqatli yigitlar, yoshlar o’zlari mehnat qilib, o’zlarini va oilalarini boqishlari qarz ham farzdir. Bu ularning otalik va onalik burchlaridir.

Demak, kuchli ijtimoiy siyosat o’zbek xalqining milliy an’anasidir. Unga podshohlar, xonlar, hokimlar, boy-badavlat insonlar hamisha ahamiyat berib, amal qilib kelganlar. Shu yo’ldan brogan davlat saltanatining umri uzoq bo’lgan. Bu tarixda sinalgan haqiqatdir.

O’zbekiston istiqlolga erishgandan keyin Prezidentimiz zikr qilingan islom dinining, din arboblarning, tasavvuf ilmi yalovbardorlarining ta’limotlarini puxta o’rganganligi, atroflicha tadqiq etganligi 1992 yil 8 dekabr kuni qabul qilingan O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi ma’no-mazmunidan yaqqol sezilib turibdi.

O’zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishgan kundan boshlab hukumatimiz kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish to’g’risida g’amxo’rlik qila boshladi. Bu g’amxo’rlik, albatta, Mehribonlik uylariga e’tibor bilan bevosita bog’liqdir.

Mehribonlik uylari yetim-yesir bolalar va ota-onasi qarovidan hamda oila muhitidan mahrum bo'lgan bolalar uchun davlat internati tamoyilidagi ta'lim-tarbiya muassasiga aylantirildi va davlat tasarrufiga o'tkazildi.

Shuningdek Mehribonlik uylari ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ham, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan ham, ta'lim-tarbiya tizimining yo'nalish va tamoyillari jihatdan ham, xo'jaligining ta'minoti jihatdan ham, tibbiy xizmat ko'rsatish masalalari bo'yicha ham davlat tomonidan ta'minlanadi. Qolaversa, ularning barcha huquqlari maxsus qonunlar orqali kafolatlangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 39-moddasida shunday deyilgan: “Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega”<sup>1</sup>. “Boquvchisidan mahrum bo'lganda” so'zlar birikmasiga “Otasi yohud onasi vafot qilgan bolalar” ma'nosi yuklatilgan. Va ayni chog'da, o'sha so'zlardan ota-onasidan mahrum bo'lib, boquvchisiz qolgan yetim bolalarni ham tushunish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 64-moddasida yuqoridagi qonun – fikr yanada oydinlashtiriladi: “Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarni rag'batlantiradi”. Bu qonun, bizningcha, to'g'ridan-to'g'ri Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi bolalarga tegishlidir.

Matbuot sahifalaridan esa ular diniy-ahloqiy tavsifdagi, yoshlar hayotini aks ettiruvchi vatanparvarlik, insoniylik, mehr-muhabbat, oqibat, qonun, jismoniy tarbiya, sport, sog'lomlashtirish, jahon yangiliklari va boshqa har hil materiallarni qiziqib o'qishar ekan. “Ma'rifat”, “Oila va jamiyat”, “Halq so'zi”, “Tarjimon”, “O'zbekiston ovozi”, “Xalq ta'limi”, “Saodat” kabi gazeta va jurnallar o'smirlarni o'ziga jalb qila olishi ma'lum bo'ldi. Shu bilan birga, Mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan o'smirlarda oila va hayotga, davlat g'amxo'rliqi, mehnatga, Mehribonlik uyidagi moddiy va ma'naviy hayotga, axloq, o'qish va bilim olishga, o'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan muhabbatlari darajalarini aniqlash maqsadida quyidagi so'rov-savollaridan foydalandik

### **I. Davlat g'amho'rligiga munosabati.**

1. O'zingizni jamiyat a'zosi deb hisoblaysizmi?
2. O'z vataningiz, tug'ilib o'sgan joyingizni sevasizmi?
3. Davlat mulkiga munosabatingiz qanday va ehtiyot qilasizmi?

### **II. Mehnatga munosabati.**

1. Mehnatga ixlos, qunt bilan yondashasizmi yoki uni majburiyat ostida bajarasizmi?
2. Qaysi mehnat faoliyatiga ko'proq qiziqasiz? (to'qish, tikish, jismoniy, aqliy, ijtimoiy)
3. Mehnat qilishni sevasizmi.

### **III. Axloqiy munosabatlar.**

1. Axloqiy, irodaviy xislatlar. O'zingizga nisbatan talabchanmisiz (sabr-bardoshli yoki bo'sh-beqaror) ?
2. Axloqiy motivlar. Qo'pollik, o'z sirini oshkor aytmalik, sharm-hayo, mas'uliyatni anglash yoki subutsizlik holati bormi?
3. O'zingizni o'zingiz bahoay olasizmi? Salbiy va ijobiy ishni tushunish darajasi qanday?
4. Odamlar bilan muloqotda o'zingizni qanday tutasiz?
5. Odamlarga ishonasizmi?

### **IV. O'qish va bilim olish munosabati.**

1. Izlanuvchanlikka, ijodkorlikka intilishingiz bormi yoki shunchaki o'qishga kelasizmi?
2. Ilm olishga qiziqasizmi, she'r yod olasizmi, kitob o'qiysizmi, to'garaklarga qatnashasizmi?
3. Kasb-hunar tanlashga munosabatingiz, kasb egallash uchun bilim olish zarurligini qanday tushunasiz?

## **V. O'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan munosabati.**

1. O'z shaxsingizni parvarish qilasizmi? (Gigiena qoidalariga rioya qilasizmi?)
2. O'zingizning xatti-harakatingizga baho bera olasizmi?
3. O'z taqdiringiz, kelajagingizni qanday tasavvur qilasiz?
4. Orzularingiz va unga erishishga intilishingiz bormi?

## **VI. Ma'naviy madaniyatga munosabati.**

1. Ma'daniy-ma'naviy merosimizni hurmat qilasizmi?
2. O'zbekona an'analar, urf-odatlariga munosabatingiz qanday?
3. O'z millatingiz, Vataningiz, tilingiz, diningiz bilan faxrlanasizmi?
4. Ijtimoiy masalalarga munosabatingiz qanday?
5. G'oyaviy yetuk bo'lish ustida ishlaysizmi?
6. Ish va so'z birligi, faollik, tashabbuskorlik, ijodkorlikka munosabatingiz qanday?

- Mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan har bir o'smirning ruhiy-botiniy holatini yaxshi bilish;

- O'smirlarga o'z o'tmishini eslatmaslik (bu o'smir tarbiyasining sharti hamdir);

- O'smir shaxsiga nisbatan hurmat;

- Mehribonlik uyida o'smirlarning ichki dunyosi, fe'l-atvori, qobiiyati va o'z-o'ziga munosabatini o'rganish;

- O'smirlarga va ularning atrofidagi shaxslarga, mehnatga, shuningdek, uning jamoadagi o'zini tutishi, faolligi yoki faoliyatsizligiga o'z vaqtida to'g'ri baho berish;

- o'smirlarning jismoniy o'sishi, ularning ruhiy holatida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni aniqlash;

- Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o'smirlarda milliy g'ururning asosiy qirralarini aniqlash.

Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o'smirlarda milliy g'ururni shakllantirishning asosiy pedagogik xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Umuminsoniy, milliy qadriyatlar;
- ajdodlar tarixi va merosi;
- milliy tarixiy qahramonlar hayoti va faoliyati;
- adabiyot va san'at;
- o'zbekona urf-odatlar va milliy an'analar;
- xalq og'zaki ijodi;
- burch va mas'uliyat;
- muhabbat va hissiyot;
- Vatan bilan fahrlanish.

Shu asosiy xususiyatlar bo'yicha Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o'smirlar bilimini kuzatdik. Bir qancha tadbirlar tashkil qilindi, suhbat, ma'ruzalar, munozaralar o'tkazildi. "Vatanim – onam", "O'zbekiston istiqloli". "Dono bobo o'g'itlari", "Mehmondo'stlik", "Do'stim – faxrim". "Vatan oldidagi burch va mas'uliyat", "Mehnatsevarlik", "Muhabbat – inson tuyg'usi", "Xalq bayramlari haqida suhbat", "Hadisi Sharifdan namunalar o'qish", "Dinim – or-nomusim" va shu kabi mavzularda tarbiyaviy suhbat kechalari uyushtirildi.

## **1.2 Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o'smirlarda milliy g'ururni takomillashtirishning pedagogik omillari.**

Mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan o'smirlarda milliy g'ururni o'stirish va takomillashtirish uchun, avvallo, o'smirlik yoshini to'liq belgilab olish kerak.

O'smirlik yoshi dunyoqarash, e'tiqod, nuqtayi nazar, suhbat, o'zligini anglash, o'zini baholash va boshqa xususiyatlar shakllanayotgan davr hisoblanadi. Bu davrda o'smir o'z faoliyatini muayyan xolda e'tiqod va shaxsiy nuqtayi nazari asosida tashkil qila boshlaydi. O'smir shaxsining tarkib topishida axloq, o'ziga xos ong va tafakkur aloxida ahamiyat kasb etadi. Umuminsoniy xislatlarni shakllantirish jarayoni o'quvchidagi ishonch, aqida, nuqtai nazarning qarama- qarshiliklariga, uning atrof-muxitdagi hodisalarga va kishilarga munosabatini hisobga olish lozim.

Psixologlar o'tkazgan tadqiqotlardan ko'rinadiki, o'smirlarning ko'pchiligi qatiyatlilik, kamtarlik, mag'rurlik, samimiylik, mexribonlik, dilkashlik, adolatlilik kabi ma'naviy-axloqiy tushunchalarni to'g'ri anglaydilar.

Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o'smirlarda milliy g'ururni tarbiyalash aqliy, axloqiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik, estetik, badiiy, diniy tarbiyaning tarkibiy qismlariga yaxlit jarayon sifatida qarashni taqazo etadi. Bu omillar o'smirlarni tarbiyalash jarayonida uning ongiga ta'lim-tarbiya davomida o'zaro birlik va aloqadorlikda ta'sir etishi va ular mazmun- moxhiyati bilan bir-biriga bezlik, bo'lishi lozim.

Umumbashariy madaniy merosdan baxramand bo'lish, o'z tarixi, san'ati, ma'naviy-ruxiy qadriyatlari, diniy bilimi asosida o'zligini anglash, Vatan, xalq va millat manfaatlariga masullik sezish va boshqalar milliy g'ururini shakllantirishning asosiy mezoni hisoblanadi. Demak, o'smirlarning ma'naviy kamolotida axloqiy fazilatlarning o'zni benixoya kattadir. O'smirlarning axloqiy sifatlaridagi insonparvarlik, xalollik, tashabbuskorlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, erksevarlik, faollik, haqiqatgo'ylik, masuliyatlilik, saxiylik, kamtarlik, poklik kabi axloqiy tushunchalar milliy g'ururni shakllantirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'smirlarning axloqiy ongi va tafakkuri estetik his-tuyg'ulari bilan o'zaro aloqada shakllanadi. Ularda milliy g'ururni shakllantirish jarayonida estetik g'oya, estetik did, go'zallikdan zavqlanish qobiliyati ham o'sadi.

Psixologlarning ta'kidlashicha, estetik did, xissiyot va aqliy turmush tarzini uzviy bog'lab turuvchi shaxsning qobiliyati o'smirlarning estetik didi, uning o'rtoqlari, jamoasi, oila a'zolari, jamoatchilikning xulq-atvori, xatti-harakati, muloqot madaniyati, milliy g'ururi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, urf-odat va an'analarga, xalq donishmandligiga munosabatlarida namoyon bo'ladi. Mehribonlik uylaridagi o'smirlarda esa shu xislatlar o'zi yashab va tarbiya olib turgan Mehribonlik uyi shart-sharoitida tarkib topadi, shakllanadi va takomillashadi.

Mehribonlik uylarida o'smirlarning milliy g'ururini tarbiyalash quyidagi pedagogik-psixologik omillar orqali amalga oshiriladi:

- darslar jarayonida fanlarning maqsadli bog'liqligi;
- Vatan tarixi va buguni haqida suhbat hamda munozaralar;
- tarbiyaviy ishlar: milliy qahramonlar va davlat arboblari (Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va shu kabilar) faoliyatiga bag'ishlangan kechalar uyushtirish;
- milliy qadriyatlarga bag'ishlangan kechalar tashkil qilish (Navro'z, Ramazon xayiti, Qurbon xayiti, Xalqaro xotin-qizlar kuni, Mustaqillik kuni, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni va shu singarilar);
- ommaviy hasharlarda qatnashish;
- mumtoz fan, adabiyot va san'at arboblari tavallud kunlarini nishonlashni tashkil qilish;
- sport musobaqalari;
- qadimiy obidalarga, tarixiy shaharlar (Xiva, Samarqand, Buxoro)ga sayoxatlar uyushtirish va shu mavzuda munozara, suhbatlar tashkil qilish;
- mashxur adabiyot, fan va san'at namoyandalari bilan uchrashuv kechalari uyushtirish;
- tarbiyalanuvchilarning kasb-hunar to'garaklarida tayyorlagan maxsulotlari ko'rgazmasini tashkil qilish va shu kabilar.

Bu tarbiyaviy tadbirlarning deyarli barchasi o'smirlarning fikrlashiga, muloxazalar yuritishiga, o'zini o'zi boshqarishiga, o'zini o'zi baholashiga, o'zini boshqalar bilan qiyoslashiga, ajdodlari haqida muayyan tasavvur xosil qilishiga, e'tiqodini shakllantirishiga, o'zining kimligini va kimlarning avlodi ekanligini anglashiga yordam beradi. Bu milliy faxr-iftixor va milliy g'urning shakllanib hamda rivojlanib borishini taqazo etadi. Darhaqiqat, milliy g'urur shunday pedagogik-psixologik qudratga egaki, shu samarali mo'jiza tufayli inson Vatan, uning kelajagi, o'zining kelgusidagi istiqboli, maqsad va vazifalari bilan yashash fikrini, malakasini tarkib toptiradi.

Mexribonlik uylaridagi o'quvchi-tarbiyachilarning samimiy xatti-harakati, maqsad va vazifalari, tarbiyachilik burchlari xuddi shu masalaga yo'naltirilishi lozim. Zero, ular birinchi galda o'smirlar qalbida e'tiqod tuyg'usini tarkib toptirishlari zarur. Zotan, iymon va e'tiqod mevasi milliy g'urur hisoblanadi. Milliy g'urur esa Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o'smirlarning buyuk va istiqbolli kelajagini belgilab beradi.


Shu o'rinda yana bir narsani unutmaslik kerakki, o'smirlar odatda taqdidchi bo'ladilar. Ular yangi o'tkazilgan nixol kabi istagan tomonga egilib, ergashib ketishlari mumkin. Bunday xolatda tarbiyachi-o'qituvchilar jamoaga ijobiy ma'noda o'rnak bo'lishlari zarur. Tarbiyada qo'llaniladigan pedagogik vosita va omillar, o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlar o'smirlarning nozik hayoti va turmushi, ruxiy xolatlariga samarali ta'sir qilib, ularning milliy g'ururini takomillashtirishga xizmat qilishi lozim.

Shuning uchun va yuqoridagi pedagogik vosita hamda tadbirlarni to'laqonli va samarali amalga oshirish jarayonida Mehribonlik uyi rahbariyati, o'qituvchi-pedagoglar bilan bir qatorda, davlat va nodavlat tashkilotlar, otalik, tashkilot, muassasa va korxonalar, ekskursiya bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar, muzeylar xodimlari, matbuot organlari, ommaviy axborot vositalari, fan va ilmiy muassasalar, shuningdek, Mehribonlik uylarida faoliyat kursatayotgan barcha tugaraklar, jismoniy tarbiya va sport o'qituvchilari ishtirok etishlari maqsadga muvofiqdir. Yuqorida aytilgan pedagogik omillarning hamkorlikdagi faoliyatlari Mehribonlik uylaridagi

o'smirlarning milliy g'ururini tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Ularning milliy g'urur tarbiyasi ishtiroki, vazifalari, tarbiyaviy hamkorliklari taxlili quyidagi pedagogik tizimni yaratishga imkon berdi.

### 1- jadval

#### Mehribonlik uylarida o'smirlar milliy g'ururini takomillashtirish omillari tizimi



Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o'smirlarning milliy g'ururini o'stirish badiiy, moddiy va ma'naviy, axloqiy ma'no kasb etadi. Bunda milliy qadriyatlar, milliy urf-odatlar ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi. Uning moddiy asosini nashriyotlar, kinoteatrlar, kutubxonalar, konsert zallari, teleko'rsatuvlar, radio va boshqalar tashkil etadi. Milliy g'urning badiiy mazmuni, uning milliyliigi va umuminsoniyliigi, badiiy boyliklarning hammabopligi, badiiy san'at asarlarining insonparvarligi, istiqbolliligi, g'oyaviy pishiqligi, hayotiy mushtarakligi bilan baholanadi.

Har bir Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchi o'smir insonparvarlik va vatanparvarlik qoidalariga rioya qilgan holda, bu faoliyat insonni xar tomonlama ximoya qilishga, uni ulug'lashga, milliy g'ururlanishga qaratilishi lozim.

Asl vatanparvar unvonini olish uchun insonga juda katta masuliyatli ma'naviy-axloqiy vazifalar yuklanadi. Nima va qanday hodisa bo'lishidan qat'iy nazar, tug'ilib o'sgan qishlog'ini, shaharini, boshqacha aytganda, kindik qoni tomgan zamin — Vatanini tark etmaydi. Bunday insonlar asl vatanparvarlar deyiladi.

Zero, faxrlanish xaqiqatdan ham yaxshi xulqlar va oliy fe'llarda oldin ketish, ilmu xikmatni egallash va imkoniyat boricha mavjud nopokliklardan tozalanishdir. Kimda shunday sifatlar topilsa, xukm uning foydasiga va kimda bular etishmasa, xukm uning zarariga buladi. Zotan, Vatanni sevish, xalqni hurmat qilish faxrlanish yoxud ulardan g'ururlanish belgisi bo'lib, bu yaxshi xulq va yaxshi fazilatdir. Kimki millatning madaniyati tarixidan, ajdodlari qoldirgan barcha meroslardan, hamma soxalardagi an'analaridan faxrlana bilsa, o'tmishda vatani va xalqi boshiga tushgan daxshatli va ayanchli fojiiyaviy taqdirdan achinsa, u vatan va xalqi kelajagi uchun, nurli istiqol yo'lida fidoyi bo'lish orzusida yashaydi, mexnat qiladi, o'z kasbining ustasi bo'lishga intiladi, tashabbuskorlikni qo'lga kiritish armonlari bilan nafas oladi.

Insonparvarlik va vatanparvarlik o'smir uchun, birinchidan, kundalik ma'naviy fazilat bo'lib qilishi, ikkinchidan, o'smir ongi va faoliyati demokratik jamiyat yaratishga qaratilgan bo'lishi, uchinchidan, xuquqiy davlat yaratishga o'z hissasini qo'shishga tayyor bo'lishini taqazo etadi. Xar bir o'smirning faoliyatida oshkoralik tamoyili ustuvor bo'lishi zarur.

Oila baxt-saodati haqida qayg'urish, farzandlarni kasb-xunarli qilib tarbiyalash, vatanga, xalqqa sadoqatli kishilar qilib etishtirish ham vatanparvarlikning namunasidir.

Bunday xususiyatlarni o'z xulq-atvorida mujassam eta oladigan o'smir uning faoliyatida og'ir vaziyatda vujudga keladigan muammolarni muzokara, munozara, musobaqa yo'li bilan xal qilishga intiladi va shu yo'llar bilan g'ururiga putur etkazmaslikka harakat qiladi.

Mustaqilligimizning tantana qilishida milliy qadriyatlar va e'tiqodlar ham muhim ahamiyatga ega bo'lganini aslo unutmasligimiz kerak. Asrlar davomida sinovdan o'tgan, milliy istiqol g'oyalaridan tarbiya jarayonida foydalanish o'smirga o'zligini anglashda va milliy g'ururli bo'lishida yordam beradi. Islom dini qonun-qoidalarida, mazmunida ezgulik ta'limoti bilan bir qatorda, xar bir muslim va muslima amal qilishi zarur bo'lgan axloqiy-ma'naviy qadriyatlar, sharqona urf-odatlar, udumlar, an'analar, tarbiya qoidalari targ'ib etiladi. Ularning mohiyati

ma'naviy-axloqiy jihatdan tahlil qilingachgina va o'smir ongida milliy g'urur shakllantirilgan tag'dirdagina e'tirof etiladi.

Demak, Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o'smirlarning milliy g'ururini shakllantirishdagi, uning aqliy, axloqiy, estetik, badiiy, siyosiy, diniy va boshqa qirralari bir-biri bilan o'zaro aloqatdor xolda ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sirning samaradorligi esa ta'lim-tarbiya jarayonida o'smirning ma'naviy qiziqishi uning talab va extiyojini hisobga olish, bu xususiyatlarning jamiyat ma'naviy taraqqiyoti talablari bilan mosligi, ma'naviy va milliy manbalardan o'smir yosh va rug'iy xususiyatlariga mo'yl ravishda samarali foydalanish, ta'lim-tarbiya jarayonida zarur usul va vositalar asosida tashkil etish, ta'lim-tarbiya mazmunidagi milliy, umum-insoniy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar kabi muhim pedagogik talablarga rioya etishga bog'liq.

Ajdodlar or-nomusini ximoya qilish, ularning vatanparvarlik g'oyalariga, milliy qadriyatlariga sodiq bo'lish mustaqillikning asosiy prinsipi bo'lmog'i lozim.

Birodarlik, hamkorlik umumiy ishning kalitidir. Bu musulmon xalqlarining, chunonchi, o'zbek xalqining doimiy tarixiy shioridir. Muqaddas Qur'oni Karim ham, Xadis ilmi ham va boshqa qomusiy o'zbek olimlari asarlari ham shu muborak fikr va g'oyaga amal qilishga da'vat etadi. Yuqorida aytilgan barcha fikr va muloxazalar, bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar, yuksak maqsadlar, ezgu niyat va istaklar mustaqillik tarbiyasining ham negizini tashkil etadi. Hozirgi kunda vatan mustaqilligini saqlab qolish, uni kamol toptirish uchun turli tarbiya usullarini rivojlantirish haqida qayg'urish xar bir fuqaroning burchidir.

Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi bolalar jamoa tarzida yashaganliklari sababli ular o'zlariga xos psixologik xususiyatlarga ega, shu sababli bu muassasada ish uslubi ham o'zgacha.

Surxondaryo viloyati 12-sonli Mehribonlik uyida 85 nafar o'smir bilan 8 nafar tarbiyachi ishlaydi. Reja rus va o'zbek tillarida yillik, oylik, xaftalik qilib tuzilgan. Uni tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari tasdiqlagan. Reja o'smir yosh xususiyatlarini, xatto jinsini ham hisobga olgan. Chunki, o'g'il bolalar aloxida, qiz bolalar aloxida tarbiyalanar ekan. Reja xar tomonlama mukammal bo'lib, aqliy, axloqiy, estetik-badiiy, ekologik, mexnat va diniy tarbiyalarni mujassamlashtirgan

mavzularni o'z ichiga olgan. Jumladan, umuminsoniy, milliy qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimiz aks etgan suhbat mavzulari, sayil va bayram ertaliklari ham bor. Ma'naviyat kunlari uchun mavzular rejalashtirilgan va e'lon doskasiga kim, qachon, qanday mavzuda ma'ruza, suhbat, munozara qilishi ko'rsatib qo'yilgan. Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchi o'smirlar bilan suhbatlashganimizda, ular kundalik hayotlaridan, tarbiyachilari va bu yerdagi sharoitdan nolishmadi. Davlat g'amxo'rligiga, pedagogik jamoaga raxmatlar aytishdi.

O'zbekistonda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot davom etar ekan, bu buyuk burilishlarda va islohotlarda, albatta ta'lim-tarbiyaning o'z o'rnini bor. Ta'lim-tarbiya ishlarida, asosan, ikki shaxs o'rtasida, chunonchi: o'qituvchi va o'quvchi, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi munosabat ahamiyatga ega. O'quvchi ustozidan bilim oladi, ilm sirlarini o'rganadi. O'qituvchi-tarbiyachi esa, o'z navbatida, o'ziga munosib voris yoxud shogird tayyorlaydi.

Shu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov aytganidek: „Inson dunyoga yaxshi ish qilish, yaxshi ijiz qoldirish uchun keladi. Yaxshi farzandlarni tarbiyalab, qilgan yaxshi ishlari va qoldirgan yaxshi izlariga munosib vorislar tayyorlaydi“.

Bu hikmatli so'zlar bir qarashda ota-onalarga qarata aytilgan fikrdek tuyuladi. Biroq, uning mantiqiy mah-iiosi o'qituvchi-tarbiyachilar faoliyati bilan bog'liqdir.

Shuningdek, Mehribonlik uylarida faoliyat ko'rsatuvchi pedagog-tarbiyachilar homiylik qilayotgan tarbiyalanuvchilar ularning farzandlari kabi yaqin bo'lmog'i lozim. Chunki, ular ham ota-ona, ham o'qituvchi-tarbiyachi vazifasini o'taydilar. Boshqacha aytganda, Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchilarning o'z o'qituvchi-tarbiyachisidan boshqa yaqin kishisi, sirdoshi, hamdardi, tarbiyachi homiysi yo'q.

Demak, Mehribonlik uylarida faoliyat ko'rsatuvchi pedagoglar o'z tarbiyalanuvchilariga nisbatan o'ta shirinso'z, muloyim, xushmuomalali va ayni chog'da, talabchan bo'lishlari zarur. Qomusiy olim al-Beruniy o'qitishda o'quvchining qiziqishi va intilishi hisobga olinishi va muallim o'z shogirdiga xushmuomalali bo'lishini takidlaydi. Darhaqiqat, ayniqsa Mehribonlik uylarida

faoliyat kursatuvchi pedagoglar o'z tarbiyalanuvchilariga juda yaqin, girdosh bo'lishlari zarur. Bu esa ulardan xushmuomalalikni talab qiladi.

Ota-ona bag'ridagi bola bordiyu o'qituvchidan xafa bo'lsa, u „dardini“ ota-onasi bilan o'rtoqlashadi, ijobiy ma'noda ko'nglini yozadi, taskin topadi. Mehribonlik uylarida esa vaziyat va holat boshqacha. Buni Mehribonlik uyi pedagogi yaxshi tushunishi va bilishi kerak.

Shu manoda Mehribonlik uyi pedagogi qattiqqo'l, yulabchan bo'lishi bilan barobar, u me'yorida oshmasligi na samimiy bo'lishi zarur. Tanbeh bolaning izzat-nafsiga tegadigan bo'lmasligi yozim. Qattiqqo'llik haddidan ohsa, bola tarbiyasiga zararli ta'sir etishi va bola o'qituvchibilan maslahatlashmaydigan bo'lib qolishi mumkin, deb ta'lim beradi Abu Ali ibn Sino.

Zotan, Mehribonlik uylarining pedagoglari tarbiyalanuvchining ko'ngliga og'ir tegmasligi talab qilinadi. Chunki, bola bir pedagogdan aziyat cheksa, u butun Mehribonlik uyidan bezishi mumkin. Bu, o'z navbatida, noxush oqibatlarga olib borishi tabiiy.

Muallimning biror tasodifiy xatti-harakati natijasida o'quvchilarda u haqda paydo bo'lgan fikr ham ta'lim-tarbiya jarayoniga salbiy ta'sir etishi, muallimning ishini murakkablashtirishi mumkin.

Odatda, bunday ziddiyatlar uzoq davom etadi va o'qituvchi foydasiga „hal“ etiladi. Muallimning obro'sini saqlayman deb, kattalar ba'zan bolaning qadr-qimmatini yerga uradilar, o'qituvchidan kechirim so'rashga majbur qiladilar. Vaholanki, bu nizoga o'qituvchining noto'g'ri xatti-harakati sabab bo'lgan. Muallimlarning bu ishi axloqiy tarbiya talablariga to'g'ri kelmaydi.

Bu o'rinda tarbiyachi-o'qituvchining odobi haqida boryapti. Zero, pedagogning ta'lim-tarbiyaviy faoliyati, shu faoliyatning samara berishi, ta'sirchan bo'lishi uning ma'naviy-axloqiy munosabatlari va muomalasi samimiy bo'lsin. Shuningdek, o'qituvchi olib borayotgan ta'lim-tarbiyaviy ishlarning hosilasi uning tarbiyachilik odobiga va shu xislatga daxldor ta'lim-tarbiya jarayonlarida ishtirok etuvchi tarbiyalanuvchilarning axloqiy-ruhiy kayfiyati va botiniy ahvoliga bevosita bog'liqtir.

Shuning uchun pedagog o'zini faoliyatning barcha jarayonlariga tayyorlashi, o'zining ta'lim-tarbiya usullari ustida tinmay ishlashi, pedagogik yangiliklardan doimiy xabardor bo'lishi, o'z faoliyatini o'zi baholab, kamchilik va qusurlarini bartaraf eta borishi muhimdir. Bu pedagogning o'z-o'ziga talabchanligi tufayli amalga oshadi.

Pedagogik jarayonning o'zida ham faoliyatning turli sohalarida masalan, o'quv ishlari sohasida, jamoat ish-larini bajarishda, o'quvchilar bilan sinfdan tashqari ishlarda, dam olish paytlarida turlicha muomala-munosabatlar mavjud.

Demak, o'qituvchi-pedagog, ayniqsa, Mehribonlik uylari pedagoglari o'z odobi, muomala madaniyatining yuksakligi, jamoatchilik orasida o'zini tutishi, kiyinishi dunyoqarashi va milliy g'ururining balandligi bilan boshqalardan farqlanishi hamda o'rnak bo'lishi tarbiyalanuvchilarda iftixor tuyg'ularini uyg'otadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o'smirlarda milliy g'ururni tarbiyalash va takomillashtirish uchun pedagoglarning o'zlari ham milliy g'ururi bilan pedagogik timsol bo'lib ko'zga tashlanib turishlari maqsadga muvofiqdir. Bilamizki, ular tarbiyalanuvchilarda milliy g'ururni shakllantirishga qodirmaslar va bunday sharaflari tarbiya huquqidan mahrumdir. Demak, pedagogning milliy g'ururni tarkib toptirishdagi pedagoglik mahorati avvalo shu sifati bilan belgilanadi.

Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o'smirlarda milliy g'ururni shakllantirish va takomillashtirishda pedagog bilan tarbiyalanuvchi o'rtasidagi muomala munosabatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqacha aytganda, tarbiyachi o'qituvchi bilan tarbiyalanuvchi o'quvchi orasidagi samimiy muomala odobi tarbiyachi o'qituvchidagi

pedagoglik mahoratining muhim belgisidir.

Mehribonlik uyi pedagogi hayotta endigina kirib kelayotgan, barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan insonlar yosh bolalar va o'smirlar bilan muloqotda bo'ladi. bolalar ta'lim tarbiya jarayonida umuminsoniy, milliy axloq va milliy g'urur normalarini (me'yorlarini) o'zlashtiradi. Tarbiyalanuvchi muomala odobini, milliy axloq va milliy g'ururni asosan o'qituvchi timsolida anglab oladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Mehribonlik uylari o'qituvchi-tarbiyachilaridagi ochiq chehra, ko'tarinki kayfiyat va ayniqsa, samimiyat pedagog axloqining asosiy nuqtalaridan hisoblanadi. Ular o'zlarini bolalarning yaqin do'sti, birodari, har bir sohada maslahatchi sifatida namoyon qilishlari lozim. Bu axloqiy sifatlar tarbiyalanuvchilar qalbiga kirib borishida va munosib joy olishda muhim ahamiyatga ega. Shundagina Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari milliy axloq-odobni, milliy g'ururni shakllantirishdek ulkan vazifani amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Mehribonlik uylarida faoliyat ko'rsatuvchi pedagoglarning milliy g'ururni shakllantirishdagi mahoratlaridan yana biri o'z burchini to'la anglab yetishlari va ado yetishlari bilan bog'liqdir.

Burch tushunchasi har bir inson unga tegishli vazifalarni bekamu ko'st bajarishni, shu jarayonda boshqalar bilan to'g'ri va halol munosabatda bo'lishni anglatadi. Mehribonlik uylarida faoliyat ko'rsatuvchi pedagoglar burchi, birinchidan, dars jarayonida bolalarga chuqur bilim berish, fan asoslarini singdirish, ikkinchidan, bolalar bilimni baholashda ularni rag'batlantirish yoxud tanbeh berishda adolatli bo'lish, uchinchidan, darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar davomida tarbiyalanuvchilarni milliy tarbiya an'alariga asoslangan holda tarbiyalash, ular ongiga milliy istiqlol g'oyasini, milliy axloq-odobni, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-muruvvat aqidalarini singdirish va nihoyat milliy g'ururni shakllantirish va takomillashtirishdan iboratdir.

Yuqorida aytilgan burch vazifalarni amalga oshirishda u ta'lim tarbiyaning turli shakl va usullaridan foydalanadi. Davlatning, jamiyatning muallim tarbiyachi oldiga qo'ygan vazifasi ham shulardan iborat. Demak, Mehribonlik uylarida faoliyat ko'rsatuvchi pedagoglarning pedagoglik burchi ma'no mazmuni u olib borayotgan-tarbiyaning asl mohiyati va natijasi bilan belgilanadi.

Darhaqiqat, bilim berish uchun bilimli bo'lmoq, tarbiya berish uchun tarbiyali bo'lmoq lozim. Chuqur bilimga ega bo'lish uchun fan olamidagi yangiliklardan xabar topib borish zarur. Ayniqsa, texnika asrida o'qituvchi doimiy ravishda o'z ustida

ishlashi talab qilinadi. Bilamizki u o'quvchi oldida noqulay ahvolga tushishi hech ga emas.

SHu xususda mashhur mumtoz olim az-Zamaxshariy yozadi: „Ilmli bo'lish o'qish, o'qitish, yozish bilan hosilu mukammal bo'ladigan bir saboqdir. Agar olim kishi chiroyli, husnixat yozuvga ega bo'lsa, bu uning kamolotga yetganidan dalolatdir". Zotan, o'qish va o'qitish jarayonlari pedagogik mahoratni oshiradi. Demak, muallim ham o'zi o'qishi, ham shu bilimlarini bolalarga berishi lozim va, ayni chog'da, o'qish va o'qitishni qo'shib olib borishi kerak. pedagogning bu faoliyati, o'z navbatida, uning 'edagoglik mahorati bosqichma-bosqich yuksalib borishini ta'minlaydi.

Shuningdek, Mehribonlik uylarida faoliyat ko'rsatuvchi pedagoglar boshqalarga nisbatan pedagoglik mashuliyatining jiddiyligini bilishi lozim. Chunki, bu yerdagi tarbiyalanuvchilar ota-ona tarbiyasidan, mahalla, qo'ni-qo'shnilar nazaridan mahrum bo'lib, ular faqatgina o'z pedagoglarini bilishadi va ular bilan munosabatda bo'lishadi. Demak, ular ham ota-ona, ham mahalla, ham qo'ni-qo'shnilar o'rnini bosishga, bolalar qalbining kemptik sirlarini to'ldirishga harakat qilishlari lozim. Bunday holatda, albatta Mehribonlik uyi pedagogidan katta mahorat va mas'uliyat talab qilinadi.

Mas'uliyatni belgilovchi asosiy omillar sifatida pedagogning ongliligini, zukkoligini, istagan vaziyat va holatda tegishli qarorga kela olishini, uni amalga oshira olishini ko'rsatish mumkin.

Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o'smirlarda milliy g'ururni shakllantirish bilan bog'liq ishlarni amalga oshirishda tarbiyachi-pedagoglarning roli beqiyosdir. O'zbekiston Mustaqillikka erishib, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tayotgan, ijtimoiy munosabatlar demokratik asosda va vatanparvarlik ruhida qurilayotgan bir paytda yuqori malakali tarbiyachi-pedagoglarning Mehribonlik uylarida faoliyat ko'rsatishi maqsadga muvofiqdir. Zotan, tarbiyachi-pedagog kasbi juda sharafli, lekin o'ta murakkabdir. Yaxshi pedagog-tarbiyachi bo'lishning o'zi yetarli emas, ayniqsa, Mehribonlik uylarida faoliyat ko'rsatayotgan tarbiyachi-pedagoglarga pedagogika nazariyasiga mos kelmaydigan vaziyatlar tez-tez uchrab

turadi. Bu esa pedagogdan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlikni, yuksak mahoratni va ijodkorlikni talab qiladi. Shuning uchun bu yerdagi bolalar va o'smirlar bilan ishlovchi tarbiyachi-pedagoglar, avvalo, mehribon, ijodkor, ishbilarmon bo'lishi zarur. Buning uchun pedagog:

—milliy madaniyat, umuminsoniy qadriyatlarni yaxshi bilmog'i, dunyoviy va diniy ilmlardan xabardor, ma'naviy barkamol bo'lmog'i;

—mustaqil O'zbekistonni sevadigan, vatan'arvarlik burchini to'g'ri anglagan, ehtiqodli fuqaro bo'lmog'i;

—psixolog, pedagogik bilim va mahoratni mukammal egallagan bo'lmog'i;

—o'z kasbini va bolalarni yaxshi ko'radigan, har bir bolaning ulg'ayib, yaxshi odam bo'lishiga, ularning shaxs sifatida rivojlanib, inson sifatida kamol to'ishiga ko'maklashadigan bo'lmog'i;

—erkin va ijodiy fikrlay oladigan, talabchan, adolatli, odobli bo'lmog'i kerak.

psixologlarning o'tkazgan tadqiqotlaridan ko'rinadiki, o'smirlarning ko'pchiligi qat'iylik, kamtarlik, mag'rurlik, samimiylik, mehribonlik, dilkashlik, adolatlilik kabi ma'naviy-axloqiy tushunchalarni to'g'ri anglaylilar. Shunga muvofiq, Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchi o'smirlarda milliy urf-odat, udum va an'analarga mehr-muxabbat uyg'otish va shu yo'sinda tarbiyalash ham tarbiyachi-pedagoglarimizga bog'liqdir.

Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o'smirlarda milliy g'ururni shakllantirish uchun, avvalo, pedagog-tarbiyachilarning shaxsiy xususiyatlari ham talabga javob beradigan bo'lishi kerak. Ular bolalarni sevishi va ular bilan ishlashga qiziqishi, pedagogga xos ziyrak va kuzatuvchan bo'lish, tashkilotchilik qobiliyatiga, haqqoniy, dilkash, talabchan, oddiy, maqsadga intiluvchi, vazmin, o'zini tuta biladigan, bir so'z bilan aytganda, kasbiy layoqatga ega bo'lishi kerak.

1. Mehribonlik uyida faoliyat ko'rsatayotgan tarbiyachi-pedagoglarimiz o'zlarining pedagogik mahorati yordamida o'smirlarga o'zbek milliy urf-odatlarini, sharqona madaniyatni o'rgatadilar va ularda milliy g'ururni tarbiyalaydilar. Mehribonlik uylarida ashula va raqs, rasm, naqqoshlik, zardo'zlik, kashtachilik, tikuvchilik, kosiblik, sport va shu kabi boshqa to'garaklar mavjud. Bu to'garaklar reja

asosida muntazam ishlab turadi. Bu to'garaklarga pedagog-mutaxassislar rahbarlik qiladilar. . Buni Termiz shahridagi 12- Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchi o'smir o'g'il-qizlar misolida ham ko'rishimiz mumkin. Bu dargohda jami 85 nafar tarbiyalanuvchi bo'lsa, ulardan 61 nafari o'smirlardir. Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi 12—13 yoshli o'smir o'quvchilarda mardlik, do'stlik, vatanparvarlik, milliy g'urur tuyg'ularini o'stirish, „Ertaklar olamiga sayohat" kechasini o'tkazish, ularning adabiyot, san'atga qiziqishlarini orttirish, milliy-estetik didlarini o'stirish, shuningdek, hikmatli so'zlar bilan tanishtirish maqsadida „Dono bobo davrasida" kechasini o'tkazish kutilgan natijani beradi.

Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi 14—15 yoshgacha bo'lgan o'smir yigit-qizlar o'rtasida „Balli, qizlar", „Iqbol", „Balli, yigitlar", „Milliy urf-odatlarimiz", „Bilimdonlar kechasi" kabi bir qancha kecha va musobaqalarni o'tkazish, g'oliblarni anikdash, ularni to'g'ri taqdirlash va rag'batlantirish ham tarbiyachi pedagoglarimizning mahoratiga bog'liq.

## **II-BOB. Mehribonlik uylaridagi o`quvchilarda milliy g`ururni shakllantirishning shakl va usullari.**

### **II-1.O`quvchilarda sharqona an`analar asosida milliy g`ururni tarbiylash.**

Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o`smirlarning milliy g`ururini va vatanparvarlik tuyg`ularini kamol toptirishning o`ziga xos xususiyatlari Qur'oni Karim, Xadisi Shariflar, Sharq mutafakkirlarining ijodi va faoliyati, xalq og`zaki ijodi, badiiy adabiyotlardan unumli foydalanishda namoyon bo`ladi. Qur'oni Karimning xar bir oyati va surasi insoniyat manfaatiga xizmat qiladigan qimmatli o`gitlar, yo`l- yo`riqlar, pand-nasihatlari, axloqiy poklik, iffat, iymon, do`stlik, ota-ona qadri, yetim-yesir xaqi, farzandlik burchiga tegishli qimmatli o`gitlar bilan yo`g`rilgan. Din Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o`smirlarni insonparvarlikka, vatanparvarlikka, tabiatga muhabbat, tevarak-atrofni, suv, havo, tuproqni asrash, avaylashga, do`stlikka, ahillikka, tinch-totuv yashashga da'vat etadi. Qur'onda birovlar haqqiga ko`z olaytirish, o`g`rilik, Vatanga xiyonat kabi qabix, ishlar qoralanadi, ularni insofga chaqiradi, tavba qilishga undaydi.

Darxaqiqat, sharqona axloq-odob, vatanparvarlik, insonparvarlik, xalqparvarlik, rostgo`ylik, diyonat har tomonlama barkamol insonning ma'naviy qiyofasidir. Shuningdek, ma'naviyati yuksak inson xaromdan xalolni farqlab olib, xaromga, poklik bilan nopoklikni ajratib, nopoklikka, xiyonatdan diyonatni ajratib, xiyonatga, adolatsizlikka qarshi kurasha oladi.

Yusuf Xos Xojibning „Qutadg`u bilig“, Farobiyning „Katta musiqa kitobi“, Paxlavon Mahmudning „Ruboiylar“, Abu Ali ibn Sinoning „Salomon va Ibsol“, „Tayr qissasi“, „Xayn ibn Yakson“, Alisher Navoiyning „Maxbub ul-qulub“, Umar Xayyomning „Ruboiylar“, „Navruznoma“ singari asarlari shular jumlasidandir. Shu mutafakkir olimlar xalqning qadimiy bayram an'analari, marosimlari va ular bilan bog`lik, urf-odatlarini haqida o`z asarlarida qimmatli ma'lumotlar qoldirganlar. Ularda „Navro`z“, „Qurbon hayiti“, „Ramazon hayiti“ kabi bayramlar haqida ma'lumot berganlar. Bu bayramlar insonlarni bir-biriga mehr-muruvvatli, xayr-saxovatli bo`lish, yetim-yesirlar, qarindosh-urug`lar xolidan xabar olish, o`zbekona

odatlarimizga sodiqlik, Vatanni sevish va ardoqlash, u bilan g'ururlanish kabi xis-tuyg'ularni shakllantirish muhim vosita hisoblanadi. Masalan, „Navruz" bayramida shirinliklar xadya etish (hayotning shirin bo'lishini tilash), sovg'a-salomlar berish, gul sovg'a qilish (guldek nafis, guzal hayot tilash), bir-birlariga suv sepish (suv mo'l bo'lsin, xosildorlik yuqori bo'lsin degan ma'noda) va boshqa urf-odatlar joriy etilgan. Bularning barchasi kishilarning milliy g'ururini shakllantirishga qaratilgan.

O'zbek xalq og'zaki ijodi (afsona, rivoyat, ertak, doston, maqol, matal, qo'shiq, latifa, lof, askiya) namunalari xalqning turmush tarzi, axloq-odobi, urf-odatlari, an'analari, diniy e'tiqodini o'zida mujassam etadi. Orzu-umidlarni, mehnatga ijobiy munosabatni, vatanparvarlikni, sadoqatni, erk va ozodlik yo'lidagi mardonavor kurashni, moddiy va ma'naviy extiyojlarni qondirish, kelajakdagi farovon turmushga ishonchni ifodalaydi.

Xalq og'zaki ijodining qadimiy janrlaridan biri afsonalardir. „Iskandarning shoxi bor", „Luqmoni xakim", „Shirin qiz", „Yolg'on so'z siri", „Tilla baliq tog'a" kabi afsonalar azaldan sharq xalqlarining tabiatiga xos mardlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, adolat, erksevarlik, vafodorlik kabi fazilatlarni tarbiyalaydi.

Rivoyatlar esa mavjud hayotiy ma'lumotlarga tayangan holda, badiiy tuqimalar vositasida insoniy qadriyatlar, insonning ezgu orzu-umidlari, armonlari, quvonchlari, tashvishlari, g'am-qayg'ulari, extiroslarini aks ettiradi. Rivoyatlar negizida tarixiy shaxslar hayoti, ma'naviy faoliyati yotadi. Masalan, Jaloliddin Manguberdi Vatanni tanho dushmandan ximoya qilgan va jonini fido etgan, Amir Temur o'z xalqi, Vatanning osoyishtaligi, uning milliy g'ururi yo'lida jang qilgan, Bobur o'z Vatanidan yiroqda bo'lishiga qaramay, o'z xalqini, Vatanini e'zozlab, ularni qumsab yashagan. Navoiy, Nodira, Uvaysiy kabi mutafakkirlarimizning insoniyligi, buyukligi, Vatanga xurmati, mexr-muxabbatini ifodalovchi qator rivoyatlar mavjud. Bundan tashqari, Uchtepa, Besharik, Buxoro, Navoiy, Xorazm kabi joy nomlari haqidagi rivoyatlar ham Mexribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o's-mirlarning milliy g'ururini shakllantirishda va o'zligini anglatishda muhim ahamiyatga molikdir.

Milliy g'ururni shakllantirishda xalq og'zaki ijodining marosim ko'shiqlari ham aloxida o'rin tutadi. Marosim qo'shiqlari insonlarning tabiatga estetik munosabatlarini bildiruvchi tasavvurlari, ishonchlari, orzu-umidlari, axloqiy qarashlarini shakllantirishga yordam beradi. Ertaklar esa ta'sirchan janr bo'lib, o'smirlarning ruxiy va yosh xususiyatlariga ko'ra, ma'naviy ongiga, faoliyati mazmuniga, hissiyotiga ijobiy ta'sir etadi. Ertaklarning o'ziga xos xususiyatlarini aniq bilgan o'smir unda ko'tarilgan g'oyaning asl mohiyatini tushunadi, ertaklarga xos badiiy tuqimalardagi voqea-xodisalardan hayotiy xulosa chiqarishga o'rganadi. Ma'lumki, ertaklarning g'oyaviy yo'nalishini adolat, jasurlik, qaxramonlik, ezigulik, insonparvarlik, farovon hayot, vafo, xalqparvarlik kabi ma'naviy tushunchalar tashkil etadi. Shuning uchun ham momolarimiz, bobolarimiz o'z nabiralarini doimo ertak bilan siylashgan.

Xalq dostonlari xalq ma'naviy qadriyatlarini, an'analari mujassamlashtirilgan xalq og'zaki ijodi janrlaridan biri bo'lib, unda musitsa bilan she'riyat uyg'unlashgan. Dostonlarning g'oyaviy va ma'rifiy ahamiyati shunda-ki, ularda yuksak go'zallikka va baxt-saodatga erishishning birdan-bir yo'li maqsadlar sari qat'iy intilishdan, sabr-chidam, matonat, mardlik, qaxramonlik ko'rsatishdan iboratdir, degan g'oya ilgari suriladi. Dostonlarda milliy g'urur tuyg'usi kuylovchi va tinglovchi o'rtasidagi badiiy-estetik muloqot vositasida shakllantiriladi.

Milliy g'ururni shakllantirishda samarali ta'sir etuvchi janrlaridan yana biri — latifalar asosida tarixiy voqealar, maishiy hodisalar yotadi. Ziyraklik, o'tkir xajv, hozirjavoblik, xajm jixatdan ixchamlik, mazmunan teranlik latifalarning asosiy tamoyili hisoblanadi. O'zbek xalq, latifalarining asosiy qahramoni Nasriddin qiyofasi orqali nodonlik, ikkiyuzlamachilik, firibgarlik, munofiqlik, ochko'zlik, ayyorlik, ishyoqmaslik kabi ma'naviyatga zid illatlar qoralanadi. Go'zallik, donolik, zukkolik, rostgo'ylik, mexnatsevarlik, mehmondo'stlik, ximmat, oqibat, saxiylik, ilmlilik, insonparvarlik kabi yuksak qadriyatlar ulug'lanadi. Maqol va matallar esa turli millat kishilarining ma'naviy yetuklik, zukkolik belgisi bo'lib, ularning tub manfaatlari, orzu-armonlari umumiylikining ko'rsatkichlaridir. Ularda insoniy g'oyalar qisqa, lo'nda shaklda bayon qilinadi. Maqollar xalq, mexr-oqibati va uning buyuk

yaratuvchilik qudratini o'ta ta'sirchan badiiy vositalar bilan ifodalaydi. Quyidagi maqollar o'smirlarning milliy g'urur tuyg'usini, vatanparvarlik sifatlarini tarbiyalashda samarali ta'sirchan vositalarga kiradi:

Ona-yurting omon bo'lsa,  
Rangi-ro'ying somon bo'lmas.  
Bulbul chamanni sevar,  
Odam — Vatanni.

Eldan ayrilguncha,  
Jondan ayril.  
Yurt qo'risang o'zarsan,  
Qo'rimsang tuzarsan.  
Yurti boyning o'zi boy,  
Yurti tinchning o'zi tinch.

Shunday qilib, xalq og'zaki ijodining barcha janrlari xalq pedagogikasining muhim bir yo'nalishini tashkil etadi va Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o'smirlarning milliy g'ururini kamol toptirishda quyidagi vazifalarni bajaradi:

xalq o'gzaki ijodi ta'lim-tarbiyaning pirovard maqsadiga xizmat qiladi va tarbiya mezonlarini umumlashtirib, milliy g'urur tarbiyachisi va tarbiyalanuvchisi sifatida namoyon bo'ladi;

xalq, og'zaki ijodi muhim ilmiy-amaliy, badiiy- estetik manba hisoblanadi, xissiy tarbiya bilan aqliy tarbiya jarayonini uyg'unlashtiradi;

xalq og'zaki ijodining muhim vazifasi ajdodlarimizning badiiy tafakkur maxsullari: xalqning afsona, rivoyat, matal, maqol, alla, dostonlarida aks etgan ezgu niyatlari, orzu-umidlari, armonlari, urf-odatlarini yosh avlodga yetkazishdir;

xalq og'zaki ijodida namoyon bo'ladigan ta'lim-tarbiya usullari: buyruq, o'git, nasihat, namuna, o'rnak, murojaat, iltijo, kinoya, piching, kesatish, yumshoq, zaxarxanda, yumoristik tanqid, ma'qullash va inkor etish kabi g'oyalar kuchini oshirishga qaratilgan.

Demak, xalq og'zaki ijodi milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishning muhim vositasi sifatida o'smir shaxsining butun hayoti va faoliyati jarayonida amal qiladi.

Badiiy adabiyot xalq og'zaki ijodi singari Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o'smirlarning milliy g'ururini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. O'smirlarda badiiy adabiyotning barcha turlari — mumtoz adabiyot, hozirgi zamon adabiyotiga oid nasriy, dramatik, lirik asarlar o'smirlarda insonparvarlik, shirinsuxanlik, qadr-qimmat, do'stlik, birodarlik, mexr-oqibat, Vatan ishq, g'ururlanish, xalq farovonligi, barkamol insonni tarbiyalash kabi xususiyatlarni shakllantiradi.

XX asr o'zbek adabiyoti inqilobiy o'zgarishlar davridagi o'zbek xalqi ma'naviy hayotining muhim qismi hisoblanadi. Bu davrda Abdulla Qodiriy („O'tgan kunlar", „Mexrobdan chayon"), Cho'lpon („Kecha va kunduz"), Fitrat, Usmon Nosir va boshqalarning realistik xikoya, qissa, roman, dramatik asarlarida millat, ozodlik, erkinlik, til va madaniyat taqdiri uchun kurash, o'zbek milliy udumlari, axloq-odob mezonlari, milliy qadriyatlarini tarannum etish va targ'ib qilish birinchi o'rinda turgan. Bu davrda yaratilgan turli janrlardagi badiiy asarlar yagona maqsad — milliy g'ururni shakllantirish, millat kelajagi, taqdiri uchun kurashish va Vatan ravnaqi uchun mehnat qilishga qaratilgan.

Vatanimiz mustaqilligi, xuquqiy demokratik davlat qurish jarayonlari badiiy adabiyot, badiiy ijod mazmuniga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. E. Vohidov, A. Oripov, O'. Xoshimov, J. Kamol, O. Xojiyeva, X. Ahmedova, U. Abduazimova va boshqalar ijodi Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o'smirlar ongi va xulq-atvorida adolatsizlikka, zulmkorlikka, erksizlikka, milliy g'ururni, diniy e'tiqodni ta'qib qilishga qarshi kurash hissini shakllantirishga yordam beradi.

Shunday qilib, Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o'smirlarning milliy g'ururini kamol toptirishda badiiy adabiyotning roli va o'zni kattadir. Chunki, u ayniqsa, yoshlar xissiyotiga, tuyg'ulariga obrazlar, ranba-rang tasvirlar orqali samarali ta'sir qiladi. Badiiy ta'sir milliy g'urning tezroq kamol topishiga imkoniyat yaratadi.

Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o'smirlarning milliy g'ururini kamol toptirishga doir tarbiyaviy tadbirlardan yana biri tarixiy milliy qaxramonlar va davlat arboblarning hayoti va kurash faoliyati haqidagi Xikoya, suhbat, savol-javoblar va turli kechalar bo'lib, ular o'smirlarga qattiq ta'sir qiladi va ularda milliy g'ururni takomillashtirishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

Demak, milliy g'ururni takomillashtirishda, avval ta'kidlaganimizdek, shunchaki pand-nasihatlar emas, balki tarixiy voqealarni, milliy qadriyatlar va an'analarimizni jonli ifoda etish, qadimiy yodgorliklar va obidalarga boy shaharlarga sayohatlar uyushtirish va ulardan olingan taassurotlar bo'yicha savol-javoblar uyushtirish hamda joylarda olingan suratlar bilan stendlar va devoriy gazetalar chiqarish kabi tarbiyaviy tadbirlar muhim va ta'sirchan pedagogik-psixologik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o'smirlarning milliy g'ururini shakllantirish va takomillashtirish maqsadida o'tkazilgan tarbiyaviy tadbirlarga quyidagicha metodologik va tarbiyaviy talablar qo'yildi va unga rioya qilindi:

umuminsoniy va milliy qadriyatlar hamoxongligida milliy g'urur barkamolligiga erishish;

milliy g'ururni shakllantirish uchun insoniyatning ma'naviy tajribasi mohiyatini ongli ravishda o'zlashtirish;

davr ruxiga mos xolda Mehribonlik uyida mumtoz tarbiya tajribalarini amaliy faoliyatga tatbiq etish;

tarbiyaviy tadbirlarning shakli, usul va vositalari majmuini to'g'ri tanlay bilish;

tarbiyaviy tadbir maqsadi va mazmuni uning tavsifiga mosligi;

o'smir ma'naviy talabi, qiziqishi va extiyojlariga asoslanishi;

tarbiyaviy tadbir uchun tanlangan materiallarning rang-barangligi, qiziqarliligi, o'smirlar yoshiga mosligi, hayotiyligi, ommaviyligi;

tadbir uchun tanlangan madaniy-ma'rifiy qadriyatlarning umuminsoniy va milliy tavsifi;

o'smirlarning faolligi, ijodkorligi, tashabbuskorligi;

tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishga missiy va ruxiy tayyorlanish va boihalar.

Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o'smirlarning milliy ong, milliy tafakkur va milliy g'ururini kamol toptirishda o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbir uchun material tanlashda quyidagilarga amal qilindi:

o'smirning yoshi va ruxiy g'olatiga mosligi;

o'smirning aqli, zakovati, xissiyoti, ma'naviy dunyosiga, amaliy faoliyatiga ta'siri;

o'zligini anglashda o'tmishning boy madaniy-ma'rifiy merosi dinamikasi haqida bilim, malaka va ko'nikmani shakllantirish imkoniyati;

ma'naviy va milliy qadriyatlarimizni tiklashdagi o'rni;

o'smir shaxsining Mehribonlik uyi va maktab sharoitiga mosligi;

milliy g'urning barcha qirralarini o'zida mujassam etish va xakazolar.

Demak, Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o'smirlar bilan ommaviy tarzda o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlar milliy g'urni takomillashtirishda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, bunga qaratilgan tarbiyaviy tadbirlarga raxbarlikni to'g'ri va namunali amalga oshirish mutasaddilariga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

tarbiyaviy tadbir mavzusini va uning rejasini oldindan e'lon qilish, o'smirlarning tadbir g'oyasiga munosabatini faollashtirish va unga ko'yilgan tarbiyaviy vazifalarning natijalarini yakunlash;

o'smirlarning tadbir vaqtidagi xatti-harakatlarini, faolligini, o'zaro munosabatlarini baholash.

Milliy g'urni takomillashtirish uchun o'tkaziladigan tadbirlarga raxbarlik hamda nazorat to'g'ri tashkil qilinsa va yo'naltirilsa, o'smirlar faoliyati adolatli baholansa va rag'batlantirilsa, bu borada yaxshi natijalarga erishish mumkin.

O'tkazilgan tajribalar va ilmiy tadqiqotlarga asoslanib, Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o'smirlarning milliy g'ururini shakllantirish bo'yicha tarbiyaviy raxbarlik qilish va nazoratning pedagogik tizimini ishlab chiqdik va uni quyidagi jadval orqali ifodaladik.

Mehribonlik uylarida bahor faslida „Navro'z" bayrami, „Sumalak" sayillarini o'tkazish va ulardagi ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan milliy kurash, aytishuvlar, laparlar, turli milliy o'yinlaru qizlarning tol popuklar taqib yurishlari, Navro'z taomlarini ulashishlari bilan bu yerdagi ko'ngli yarim bolalarda o'z millatiga, xalqiga, urf-odatlariga, milliy merosiga mehr-muhabbat uyg'otish yaxshi samara beradi. Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o'smirlar oiladan yiroq yashaganliklari «ababli, ularga oilaviy turmush tarzini, oilaviy tarbiyani, oiladagi urf-odatlarni o'rgatib borish ham pedagog-tarbiyachi mahoratiga bog'liqdir. Bu orada, albatta, o'zbek oilalaridagi urf-odatlarni nazardan qoldirmasligimiz zarur. To'g'ri, Mehribonlik uyliarida „O'zbekiston Vatanim manim", „Ona-Vatan", „Oila" kabi burchaklar va ko'rgazmalar mavjud. Lekin, bular oilaviy turmush tarzi o'smirlar haqida yetarli ma'lumot bera olmaydi. Shuning uchun yaqin atrofda joylashgan mahalladagi namunali oilalarga sayohatlar uyushtirish, kekxa, tajribali onaxon va otaxonlar bilan uchrashuvlar o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, oilaviy tarbiyaga oid kitoblarni uqishni tavsiya etish ham foydadan xoli emas. Jumladan, „Oila sirlari", „Siz kelin bo'lasiz", „Oilada otaning roli", „Farzandlik burchi", „Mahallam — otam" kabi mavzularda ma`ruza, munozara va suhbatlar o'tkazish tarbiyachi-pedagoglar va jamoaning asosiy vazifalaridandir.

Hadisi Sharifning 77- bobida: „Yetim bolalarga o'z onasidek marhamatli bo'l". „Alloh taologa eng sevimli bo'lgan uy yetimlar tarbiya to'gan uydir", deyiladi.

. Biz musulmonlar hamma vaqt bu burchimizni yetarli darajada bajara olmadik. Shu burchlarni bajarishda ularning jonlariga oro bo'larlik narsa ajrata olmadik. Katta tassuf bilan aytish mumkinki, ularni davlat qaramog'iga tashlab ko'ydik. . Shunday ekan, har bir pedagog o'z tarbiyalanuvchisida milliy g'urur, vatanparvarlik sifatlarini kamol to'tirishda quyidagilarni amalga oshirishi zarur:

—ona-Vatan, mustaqil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'smir ongiga singdirish va unga sodiq bo'lishni ta'minlash;

—Vatanimiz xalqiga, uning an'alariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmat bilan qarash hamda uning rivojiga hissa qo'shish, yurtning haqiqiy jonkuyari bo'lish ruhida tarbiyalash;

—o'zbek xalqining madaniy merosini asrab-avaylash va ularning tarixini hamda bugungi kundagi ahamiyatini bilish;

—o'z millatiga, ona-Vataniga, iymon-e'tiqodiga sodiq bo'lish;

—sog'lom kuch, sog'lom tafakkur, halollik va pokizalikni shakllantirish;

—Vatan oldida mashuliyat, millat manfaati bilan yashashni, Vatan taraqqiyoti, millat obro'siga hissa qo'shishni, fidoyilik va halollik bilan mehnat qilishni, xalqning shon-shuhrati va manfaatini o'ylashni, inson'arvar bo'lishni o'rgatish;

Mehribonlik uylarida ta'lim-tarbiya jarayonini mukammallashtirishda psixolog zimmasiga katta mas'uliyat yuklanadi. psixolog Mehribonlik uyi mahmuriyati, tarbiyachi pedagoglar, ota-onalar va o'smirlar bilan ishlashga mashul bo'lgan shaxsdir. Mehribonlik uylarida psixologlar shu yerdagi ta'lim-tarbiya jarayonining psixologik omillarini amalga oshiradi. U o'smir va bolalarning individual xususiyatlaridan kelib chiqib, oilaviy sharoitlarni, bilim doirasini va dunyoqarashini o'rganishi, ulardagi ijobiy va salbiy sifatlarni keltirib chiqargan «abablarni anglashi va ta'sirchan omillarning asosiy yo'nalishlarini belgilab olishi kerak. psixolog o'smir va bolalar psixologiyasida pedagogik vasotsial jihatlarni bevosita amaliyotga tatbiq etadi.

Yurtboshimiz „O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari" degan asarida yaxshilandi. Chunki, ota-onasiz yetim bolalarni istagan tomonga og'dirish va xohlagan ruhda tarbiyalash oson kechadi. Shuning uchun ularga „Hamma narsa bolalar uchun" shiori ostida g'amxo'rlik qilindi. Bolalar uylarida yashayotgan ayrim bolalarni ota-onalari o'z yurtlariga olib ketishdi. Qanchadan-qancha bolalar O'zbekistonda qolib ketishdi. Urush davrida va undan so'ng faoliyat ko'rsatib kelayotgan Toshkentdagi Antonina *Xlibushkina* rahbarlik qilgan taniqli 21-bolalar uyi fikrimizning dalilidir.

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan buyon ko'plab saxovatli homiylar, mahalla qo'mitalari, „Sog'lom avlod uchun" bolalar jamg'armasi orqali Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchilarga, kam ta'minlangan oilalarga, nogironlarga yordam

ko'rsatilmoqda. Ularga turli xil sovg'a-salomlar, kiyim-kechaklar berilib, ularning nomlariga omonat pul daftarchalari ochilmoqta.

O'zligimizni anglash munosabati bilan mahallalarimizda yetim va qarovsiz qolgan bolalar aniqlangan.

O'zbekistonda milliy istiqloldan keyin milliy qadriyatlar va an'analarni qayta tiklash va rivojlantirish, milliy axloq-odob, urf-odatlarini yanada shakllantirish va ta'lim-tarbiyani shu asosda olib borish masalasi kutarildi. Chunki, kelajagi buyuk davlatni barpo etish xuddi shu pedagogik-psixologik muammoni xalq etish bilan bog'liqdir.

O'zbek xalqining tarbiya sohasidagi o'ziga xos tarbiya dorilfununi xorzirgi yoshlarni ma'naviy-axloqiy, madaniy-ma'rifiy, estetik ruhda tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqning sharqona tarbiya an'analari udumshunoslik, merosshunoslik, ma'naviyat shunoslik, xadisshunoslik, diniy-axloqiy ta'limot va shu kabilar bilan bog'liq bo'lib, u o'zida ma'naviy, ma'rifiy, ijtimoiy, falsafiy, estetik va jismoniy kamolot xususidagi fikrlar va tajriba hamda xulosalarni mujassamlashtirgan.

O'zbek xalq pedagogikasida iymon-e'tiqod, ishontirish, ibrat ko'rsatish, ta'sir o'tkazish, tasdiqlash yoki inkor etish, qiyoslash va shu kabi xislatlar o'z ifodasini to'gan. Zotan, milliy istiqlol sharofati tufayli umuminsoniy va sharqona qadriyatlarni hamda ularning ma'no-mohiyatini chuqur anglab oldik.

Xalqning yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, tarbiyaning shakl va usullari, insoniy qadriyatlar va vatanparvarlik, halollik, to'g'rilik, poklik, xarom luqmadan o'zini tiyish, yaxshilik, birodarlik, do'stlik, ahillik, mehnatsevarlik, kasb-hunarga muxabbat, oliyjanoblik, insofli bo'lish, botirlik, jasurlik, adolat, mehmondo'stlik, yuksak odobli bo'lish, boshqalarning qadriga yetish, xurmat, mehr-muruvvat so'ziga vafodorlik, andishali va or-nomusli bo'lish, farosat, tejamkorlik, masuliyatlilik, tozalik, so'yumlik, tabiatni e'zozlash, kattalarga xurmat, hasharlarda faol qatnashish, yoshlarga mehr-shafqat va shu kabilar inson ruxida o'z xalqi va Vatanidan faxrlanishdek milliy g'urur tuyg'ularini uyg'otadi.

Muqaddas Qur'oni Karim va Xadisi Shariflarda ilgari surilgan pedagogik g'oyalar sharqona tarbiya an'alarining asosi desak, yanglishmaymiz. Sharqona

tarbiya saboqlari bilan Qur'oni Karim va Xadisi Shariflardagi muborak fikrlar ancha mushtarakdir.

Shuningdek, al-Buxoriy, at-Termiziy, Shayx Najmiddin Kubro kabi mo'tabar zotlar qoldirgan diniy-axloqiy, ma'naviy-ma'rifiy meros, al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, az-Zamaxshariy, Imom Razzoliy, Forobiy singari qomusiy olimlar qoldirgan ijtimoiy pedagogik, falsafiy-pedagogik goyalar, Alisher Navoiy, Abduraxmon Jomiy, Sa'diy, Ogahiy, Abdulla Avloniy kabi mumtoz shoir va pedagog olimlarning pedagogik qarashlari hozirgi yosh avlodni tarbiyalashda va uning milliy g'ururini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, ularning xikmatli va ibratli fikrlari milliy g'ururni tarbiyalashda tarbiya mazmunini belgilab beradi. O'zbekiston sobid qadamlar bilan o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lidan bormoqda. Bu yo'l milliy xususiyatlar, qadriyatlarni tiklash, saqlash, rivojlantirish, mudrab yotgan milliy g'ururimizni uyg'otish, vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikka asoslangan mafkura asosida istiqlol va kamolot sari yo'naltiradi. Bu esa, o'z navbatida, milliy g'urur, vatan'arvarlik, millatlararo muloqot madaniyati, vijdoniylik, milliy axloq-odob, milliy istikdol, mafkuraviy ong va tafakkur kabi insonning milliy xususiyatiga, bevosita sharqona hayotga ijobiy munosabatlarini tarbiyalash shakllari, usul va vositalarini pedagogik kategoriyalarga va yoshlarning shaxsiy sifatlariga aylantirishni dolzarb vazifa qilib qo'ydi.

Zero, ajdodlar or-nomusini ximoya qilish, ularning vatan'arvarlik g'oyalariga, milliy qadriyatlariga sodiq, bo'lish mustaqillikning asosiy mezonlaridandir.

Darhaqiqat, sharqona milliy tarbiya O'zbekiston milliy istiqlolining pedagogik maxsuli va shartidir. Sharqona milliy tarbiya O'zbekistonning davlat mustaqilligini mustahkamlash va bu boradagi barcha ishlarni amalga oshirishga tayyor farzandlarni tarbiyalab yetishtirishga xizmat qiladi. Bu esa O'zbekistan maktablarida, maktab internatlarida, Mehribonlik uylarida milliy sharqona tarbiyaning mezonlarini ilmiy asoslash zaruriyatini paydo qiladi.

. Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o'smirlarning sharqona milliy tarbiya mezonlarini belgilashda milliy g'urur, vatanparvarlik, millatlararo muloqot madaniyati, milliy odob-axloq, vijdoniylik kabi xislatlar muxhim o'rin tutadi.

Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o'smirlarning sharqona, milliy ruxda tarbiyalanganlik mezonlarini belgilash maqsadida sinf va sinfdan tashqari ishlar, Mehribonlik uyidagi tadbirlar, o'smirlarning kundalik faoliyatlari, turli to'garaklarga qatnashishlari kuzatildi, ularning yosh va aqliy imkoniyatlari aloxida e'tiborga olindi. Quyidagi mezon va ko'rsatkichlar tizimiga murojaat qilamiz. O'smirlarning sharqona tarbiyaga ijobiy munosabatini tarbiyalashga yo'naltirilgan tarbiyaviy ishlarning asosiy xususiyati o'smir kundalik hayotining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lishidir.

Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o'smirlarning sharqona hayotga ijobiy munosabatlarini shakllantirishga ajratilgan tarbiyaviy ishlar o'smirlarning mavjud imkoniyatlaridan kelib chiqqan xolda uyushtiriladi. Ular mazmuniga o'rganiladigan davrning ijtimoiy, iqtisodiy, maishiy hayoti va mohiyati singdiriladi. Shu mohiyatni anglash va ahamiyatini yoritish uchun esa o'sha davr uchun tavsifli bo'lgan ta'sirchan vositalarga murojaat qilinadi. Bunda badiiy adabiyot, musiqa, san'at asarlari, xalq amaliy san'ati, me'morchilik, sharqona bayramlar, an'analar, urf-odatlar, o'zbek xalq o'yinlari, teatr, kino, radio, oynai jaxon, matbuot asosiy vosita hisoblanadi. Tarbiya jarayonida bunday vositalardan foydalanish, ularning mazmunini idrok etish, tasavvur va tafakkur qilish natijasida o'quvchining ma'naviy madaniyati shakllantiriladi, milliy g'urur va ongi yuksaladi.

Xalq pedagogikasining nodir namunalari, tarbiya usullari va tarbiyaviy ta'sirlari muayyan vositalar orqali amalga oshirilgan. Chunonchi:

mehmon ko'tish;

turli mexnat jarayonlari va hasharlarda ishtirok etish;

turli gurunglar (choyxona, to'y marosimlari);

sayillar, (dovun sayli, gul sayli, lola sayli, sumalak sayli, dala sayli);

milliy o'yinlar;

nishonlash tadbirlari (tug'ilgan kun, muchal to'yini nishonlash, qizlar bazmi, yigitlar bazmi);

turli musobaqalar (s'ort musobaqasi, balli yigitlar, iqbol, qizlar musobaqasi, fanlar bo'yicha musobaqa, sharqona odob-axlok, bo'yicha musobaqa);

turli marosimlar (ma'raka, to'y);

safarga chiqish (ovga borish, bizning zamonamizda kino, teatr, istiroxat bog`I ommaviy yig'ilish — tomoshalarga borish va bayramlar, Ramazon xayiti, Qurbon hayiti, Navro'z). Sharqona milliy tarbiyaga umuminsoniy qadriyatlar asos qilib olindi va o'z navbatida, tarbiyaning shunga muvofiq usul va shakllari belgilandi. Bu yerdagi sharqona hayotga ijobiy munosabatlarni tarbiyalash bilan birga, ularni hayotning, turmushning og'ir, yengil sinovlariga tayyorlab borishga ham e'tibor berdik va tarbiyaning quyidagi shakllaridan foydalandik:

O'git, nasihat;

namuna bo'lish;

mexnatda chiniqtirish.

Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o'smirlarning sharqona hayotga munosabatlarini tarbiyalashda xalq pedagogikasi bilan birga, hozirgi zamon pedagogikasining tarbiya usullaridan ham foydalandik:

ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar (tushuntirish, suhbat, xikoya va namuna);

faoliyat jarayonida ijtimoiy xuquq tajribalarini shakllantirish usullari;

mashq o'rgatish usullari, o'rgatish (to'shriq, pedagogik talab);

o'z-o'zini tarbiyalash usullari (o'z-o'zini taxdil qilish, o'z-o'zini baholash);

rag'batlantirish usullari:

a) o'quvchining kuchi yetadigan ma'suliyatli to'shriq berish orqali bolaga ishonch bildirish;

b) rag'batlantirish (ota-ona, bolalar jamoasi oldida);

v) esdalik sovg'a berish (kitob, ruchka, o'quv asbobi va boshqalar);

g) maqtov yorlig'i berish;

d) stipendiya bilan taqdirlash;

e) xurmat taxtasiga suratini qo'yish;

f) safda birinchi o'rinda turish;

i) ma'muriyat va jamoaning birinchiligi;

j) musobaqada bayroq ko'tarish;

k) gazetada, radioda e'lon va hokazo;

l) jazolash (tanbex berish, xayfsan berish, uyaltirish va sh.k.)

Bu pedagogik tarbiya vosita, shakl va usullarini qo'llash, ularning me'yorini bilish, tarbiyaviy ta'sirini oshirish, o'smir yashayotgan muxit sharoiti va uning yoshi, individual, psixologik xususiyatlariga boglikdir.

Mehribonlik uylarida sharkna tarbiyani shakllantirishning jonli, ibratli namunalari sifatida milliy urf-odatlar, an'analar, rasm-rusumlar, marosimlarni jozibali, qiziqarli tarzda tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Bularni amaliyotda qo'llash uchun hayotiy misollardan, badiiy adabiyot materiallaridan keng foydalanish mumkin.

Oilaviy hayotga tayyorlash sharqona hayotga ijobiy munosabatlarni tarbiyalashning yorqin kurinishidir. Bunda mehmon kutish va mehmonga borish ko`nukmalri.o`oidalari, das turxon tuzash, xol-axvol surash, sharkna salomlashish, uy tutish, oila a'zolariga, o`uni-kushni, o`arindosh-urug'lariga mehr-muxabbati va shu kabilar o`rgatiladi. Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o`smirlarga oilaviy hayot to'g'risidagi bilimlar „Odobnoma“, „Ma'naviyat“ va boshqa darslarda, tarbiyaviy soatlarda o`rgatilsa, oilaviy hayotga tayyorlash esa turli to'garaklar, musobaqalar, suhbat, shuningdek, sahna ko`rinishlari orqali amalga oshiriladi. Bu boradagi o`smirlarning bilimini hisobga olib, quyidagi surov-savollar bilan murojaat qilish mumkin:

O'zbek urf-odat va marosimlarini bilasizmi? Kundalik turmush bilan bog'lik, xolatlar nimalardan iborat? Sharqona oila tantanalari qanday o'tkaziladi? Mehmon kutishni bilasizmi? Mehmonga borish odobi qanday? Sharqona oila anjomlarini bilasizmi? Sharqona kiyim-kechaklar, taqinchoklar va bezaklar haqidagi fikringiz? „Mehmon otangdek ulug' naqliga qanday qaraysiz? Oilangizda qanday oilaviy an'analar bo'lishini xoxlaysiz? Sharqona bayramlar: Ramazon xayiti, Qurbon xayiti, Navro'z xayitida nimalarni bilasiz? Sharqona tarbiyaga oid qanday badiiy adabiyotlarni o'qigansiz? Sharqona munosabatlarni ifodalovchi qanday radio eshittirishlarni, kinofilmlar va ektakllarni bilasiz?

Mehribonlik uylari o`smirlarining sharqona hayotga ijobiy munosabatlarini tarbiyalashda sharq xalqlarining, jumladan, o'zbeklarning milliy qiyofasi ham katta ahamiyatga ega. Chunki, o'zbek xalqi o'zining ruxiy qiyofasi, milliy xususiyati,

milliy xulq-atvori, milliy tuyg'usi, mijoz, didi, ta'bi, shuningdek, tarixiy an'analari, urf- odatlari, rasm-rusumlari, axloq me'yori, turmush tarzi, kishilar bilan munosabati, muloqot maromi xususiyatlari bilan boshqa millatlardan ajralib turadi.

Shuningdek, o'smirlar bilan ma'naviy tarbiyaga oid rang-barang mavzularda suhbatlar o'tkazish, qadimiy shaharlar va o'lishloo'larga sayoxatlar uyushtirish, shu sayoxatlardan olingan taassurotlar bo'yicha savol-javob, baxslar tashkil qilish va badiiy-tarbiyaviy kechalar o'tkazish milliy gururni tarbiyalashning didaktik-pedagogik shakllaridan hisoblanadi, kolaversa, ular ijtimoiy-pedagogik xodisa bulib, milliy istikdol goya si va mafkuraga asoslanishi lozim.

Yuqorida kursatilgan tadbirlar asosida Mehribonlik uylari o'smirlarida milliy gururni shakllantirish va tarbiyalash modeli ishlab chiqildi.

Mehribonlik uylari o'smirlarining sha'ro'orna hayotga munosabatlarini tarbiyalashda ana shu an'analarning ta' siri kuchli deb topdik. Shuning uchun inson shaxsining shakllanishida ijobiy ta'sir kursatadigan an'analar dan foydalanib, Mehribonlik uyi o'smirlarini oilaviy turmushga tayyorlash ayni muddoadir. quda-andachilik, qiz unashtirish, kuyov chaqirish, kelin salom, sovchilik va boshqalar yosh oilaning puxta, mustaxkam bo'lishi uchun katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbek xalqining har o',anday vaziyatda ham mehmonni samimiy, beminnat kutib olish odati, salomlashish odo bi, milliy urf-odatlarning ibratli kurinishlaridan hisoblanadi. Bu odob sirlarini Mehribonlik uyi o'smirlariga urgatish ularni turmushga tayyorlashning muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, sharq, xalqlari milliy qadriyatlar haqidagi sharq mutafakkirlarining ilmiy merosi, yozma badiiy ijod shakllari (sharqona, mumtoz va hozirgi zamon badiiy ijod namunalari), shuningdek, turli xarakterdagi san'at asarlari, xalq, xunarmandchiligi, ba diiy-estetik an'analar, urf-odatlar, bayramlar va boshqa an'analar asosli bilim beradi. Ta'lim-tarbiyada sharqona an'analardan unumli va samarali foydalanish va ularning o'ziga xos xususiyatlari, turli shakl va usullari Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o'smirlar milliy gururini tarbiyalashda va yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## **2.2.O'SMIRLARDA MILLIY G'URURNI TARBIYALASHDA MEHRIBONLIK UYI BILAN OTALIQ, TASHKILOTLARNING O'ZARO HAMKORLIGI.**

Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o'smirlarni bugungi kun ruxida tarbiyalash moddiy va ma'naviy boyliklarni tug'ri taqsimlashni talab etadi. Bu vazifani baja rish faqatgina Mehribonlik uylarigagina yuklatib quyil maydi. Bu ishni amalga oshirishda oila, otaliq, tashkilotlar Mehribonlik uyi bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatadilar. Bu ijtimoiy ximoyalashning bir kurinishidir. Ayniqsa, Mehribonlik uyida ta'lim-tarbiyani tug'ri shakllantirishda davlat va nodavlat tashkilotlar, otalik, tashkilotlari hamkorligi asosiy o'rinni egallaydi.

Demak, bozor munosabatlari vujudga kelgan davrda Mehribonlik uyi bilan otaliq, tashkilotlari hamkorli gini chuqurlashtirish ijtimoiy-ma'naviy ahamiyat kasb etadi.

Darxaqiqat, Mehribonlik uylariga g'amxurlik davlat va nodavlat tashkilotlari hamda otalik, tashkilotlari bilan hamkorlik, muqaddas Qur'oni Karim va Xadis namunalari va o'zbek xalqi an'alariga amal qilgan xolda tashkil kilingan.

Muhammad payg'ambarimiz Xadislarida shunday deyilgan: „Men yetimlarning kafilligini olgan odamlar bilan jannatda birga bulurman“, „Beva xotinlarga va miskin bechoralarga yordam beruvchi kishilar guyo tangri yulida ibodat qiluvchi yoki kechalari ibodat kiluvchi, kun duzlari ruza tutuvchilar bilan barobardir“, „qarovsiz dolgan muminnlar oilalariga kecha-kunduz modiy yordam kursatib yuruvchi odamning gunohlarini Tangri kechirib yuboradi“.

Demak, axillikda, hamkorlikda, birlikda, hamjixatlikda, uzaro maslahat od obida xikmat ko'p. Shu mu'tabar omillarga amal qilgan xar bir kishi va xatto davlatning ishi yurishaveradi. Shunday ekan, iqtisodiy isloxotlarni amalga oshirishdagi birdamlik, hamjixatlik, muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublika umum ta'lim maktablari, Mehribonlik uylari, turar joy va mahallalarda o'smir yoshlar va bolalarni tarbiyalashda ota-bobolarimiz uslubini qo'llash, milliy va tarixiy merosimizga, xalq, pedagogikasiga asoslanish lozim. Res'ublikamizning taraqqiyot va o'zgarishlarga boy davrida insonning xar

tomonlarga kamol to'lishi hozirgi kun talabi va ehtiyojidir. Maktablarda, Mehribonlik uylarida ma'naviy baquvvat, bilimli, o'z mustaqil Vatanimizni sevadigan, undan gururlanish tuyg'usiga ega kishilarni tarbiyalash kerak. Bu ta'lim-tarbiya oldidagi murakkab, keng kulamli muammolardan biridir. Bunday o'lgan, mas'uliyatli, sharaflil vazifani xalq etishda

Mehribonlik uylari, maktab, oila va keng jamoatchilik, otaliq, tashkilotlar, mahalla ahli hamkorligini ta'minlash muhim o'rin tutadi. Ayniksa, Mehribonlik uylarining mahalla axdi va maktab bilan hamkorlikda ishlashini yaxshi yulga kuyish hozirgi paytda o'smirlar orasida tartibbuzarlik, ug'rilik, tan jaroxati yetkazish, nomusga tajovuz qilish, giyoxvandlik, terrorchilik va shunga uxshash maishiy buzukdiklar bilan shug'ullanishning oldini olish uchun muhim omillar hisoblanadi. Ma'xallaning ustunligi shundaki, ku' yillar davomida birga yashagan kishilar yagona oilaga uyushganlar. Ular bir- bировlarini, har bir oila va har bir bolani tarbiyalashda ota-onaning mavqelari va imkoniyatlarini yaxshi bila dilar. Mahallalarning ijobiy ish tajribasi, bola tarbiyasidagi boy xalq, pedagogikasi vositalari ham turli xalqlar, elatlar va ularning oilaviy an'analari, shuningdek, Mehribonlik uyi o'smir yoshlari bilan olib boriladigan hamkorlikdagi tarbiyaviy ishlarning samarali shakllarini izlash buyicha ish tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Mehribonlik uylarida otaliq, tashkilotlar, oila va mahallalarda yoshlar, bolalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning asosiy maqsadi, yunalishi va vazifalarini bo'lishi shart.

Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o'smirlarning milliy gururini shakllantirish darajasi otaliq, tashkilotlar, mahalla, oila hamkorligini tashkil etishda ularning qiziqishini hisobga olgan xolda, yoshiga, intilishiga mos keladigan me'xnat faoliyatiga jalb etish, kasb tanlashga e'tibor berishlariga bog'lik. Mahalla, otaliq; tashkilotlar, oilalar, Mehribonlik uylari hamkorligida har tomonlarga kamolga erishgan milliy gururli yigit-qizlarni tarbiyalab chiqarmog'i kerak. Bu esa, o'z navbatida, ularning oldiga quyidagi vazifalarni quyadi:

Jismonan va aqlan sog'lom, umuminsoniy, madaniy darajasi yuksak zamonaviy yoshlarni tarbiyalash.

Vatanparvar, insonparvar, mehnatsevar va xalqparvar avlodni yetishtirish.

Mehribonlik uylari o'smirlariga maxalliy shar oitni talab qiladigan hunar, kasb egallashga va zamonaviy ilm-texnologiya asosida ishlab chidishni tashkil kilinishga urgatish. Mahalla yoshlari Mehribonlik uylari o'smirlarining milliy sport turlari bilan shug'ullanishlari ni ta'minlash va xaldro sport turlarini egallab, O'zbekiston sharafini ximoya kilishga kumaklashish.

Mehribonlik uylari o'smirlarini umuminsoniy qadriyatlar ruxida tarbiyalash.

Mehribonlik uylari o'smirlarida o`z tarixi va madaniyatini chuqur egallashga intilish va boshqa xalqlar ning tarixi va madaniyatini xurmat klish xislarini shakllantirish.

Milliy, maxalliy urf-odatlar, an'analarga rioya qilish, boshqa millatlar urf-odatlariga xurmat bilan qarash, kezi kelganda millatlarning urf-odatlari va an`oanalarini o`zaro boyitishga intilishni ta`minlash.

Mehribonlik uylari o'smirlari orasidan istedod li yoshlarni aniqlab, ularning kelajagidagi ijodiy faoliyatlariga kumaklashish.

Mehribonlik uylari o'smirlarida insonparvarlikni shakllantirish (mehribonlik, bir-birlarini tushunadigan, kamsitishlarga murosasizlik), muomala odobi, ziyoli bo`lish kabi tarbiya choralari (nohaqlikka, yolg`onchilikka, tuhmat, chaqimchi likka murosasizlik)ni tarkib toptirish.

Vatanparvarlik, dunyoviy fikrlash, ulug ajdodla rimiz merosiga sadoqat ruxini singdirish, uni urganish, uz xalqiga, davlatiga, uning ximoyasiga hamisha shay bulib turish, Uzbekiston Respublikasi ramzlariga xurmat bilan qarash, o'smirlarni Uzbekiston madhiyasi, bayrogi, tamgasi, Konstitutsiyasiga sadoqatli qilib tarbiyalash.

Mehribonlik uylari o'smirlarini turli mehnatga urgatish bilan birga kelajakka zamin hozirlash. SHuning uchun ularga mehnatning tub mohiyatini, , inson mehnati bilan ardoqli ekanligini bolalar ongiga singdirish, tug`ri so`zlik va masuliyat xissi ni tarbiyalash.

Kelajak hayotimizda sog'lom turmush uchun intilishni tarbiyalash va rivojlantirish, munosib oila sohibi bo'lishga tayyorlash.

Uzining xar bir xatti-harakatiga va ularning kelajakdagi oqibatiga masuliyat bilan qarash xislatlari ni tarbiyalash.

Hozirgi bola tarbiyasi soxasidagi tajriba Mehribonlik uylaridagi tarbiyachi-pedagoglarni, mahallada ota-ona larni, mahalladoshlarni, ustozlarni, otaliq tashkilot va jamoatchilikni mehribonlikka, bolalarning ta'lim-tar biyasiga mehr kuzi bilan karashga, yetim bulsa, boshini silashga, muxtojlarga yordam kursatishga undaydi. SHu maqsad da Mehribonlik uyi uz Nizomiga ega bo'lgan „Meh ribonlik klubi“ni tashkil qilish, unga mahalladan eng e'tiborli oila boshligini, otalik, tashkilotlaridan marifatparvar faollarini saylash zarur. Ular Mehribonlik uyi o`smirlari va bolalar tarbiyasida oila sirlarini va o`zbek milliy urf-odatlari, an`analari, tarixini urga tishda, shuningdek, milliy gurur tuygularini shakllantirishda mahalla „Kariyalar kengashi“ va mahalla kengashi dan urnak olib ish yuritishlari mumkin. Ularning ishlari quyidagi reja asosida olib borilishi mumkin:

Mehribonlik uylari maktab ma`muriyati bilan ke lishib, ota-onalar majlisi uyushtirish, ta`lim-tarbiya jarayoniga oid masalalarni ko`rib chiqish, ularning yechimini topish, amalga oshirishda faol qatnashish.

Mehribonlik uylarida xuquqiy tarbiyani kuchaytirish va k,onunlarga ongli yondashish xislatlarini sing dirib borish; sud, prokuratura xodimlari bilan uchrashuvlar, jinoyatga oid ochq, sudlar utkazish kabi tadbir larni uyushtirish:

a) Mehribonlik uylarida va max,alla bolalari bilan ishlaydigan adliya va militsiya xodimlari bilan Mehribonlik uylarida, jamoat joylarida sux,batlar munozaralar o`tkazib turish;

b) sud, prokuratura, adliya va militsiya xodimlari bilan Mehribonlik uylaridagi tarbiyasi ogir bolalar, ularning oilalari bilan ishlash tadbirlari, davra subatlari uyushtirish.

Mehribonlik uylari jamoa mulkini ehtiyot kilish, birovning mulkiga xiyonat qilmaslik. Mehribonlik uyi xonalari jixozlarini avaylashga urgatuvchi ishlarni olib borish.

Xomiylar va mahalla axolisi Mehribonlik uylarida trbiyalanuvchilardan xabar olib turish, yordam kursatish.

Mehribonlik uylaridagi o'smirlarning odobli, ijodkorlarini ragbatlantirish, tarbiyachilarga raxmat-

noma eolon kilish, ularning ishlarini ommalashtirish, „Ustozingga raxmat“, „Odobingga balli“ kabi kurgazma larni tashkil kilish.

Mehribonlik uylarida dolar hayosi, ibosi, tur mushga, hayotga tayyorgarligi haqida bahs munozaralar, qizlar ko`rik-tanlovini o`tkazish.

Mehribonlik uylariga mehmat qaxramonlarini tak lif qilib, ular ishtirokida qabiliyatli o'smir yigit qizlar musobaqasini uyushtirish. Musobaqalarni avval Mehribonlik uyida, sung tumanda, shaharda (istiroxat boglari, madaniyat uylarida) o`tkazish va g`oliblarni rag batlantirish.

a) sanitariya va gigiena ishlariga Mehribonlik uylari jamoasining etiborini qaratish;

b) hasharlar uyushtirish, tozalik, tartib, kukalamzorlashtirishga etibor berish;

v) „Sog tanda — cog`lom aql“ mavzusida suhbatlar, munozaralar, uchrashuvlar utkazish;

d) Mehribonlik uylarida sog`lomlashtirish maydon chalarini tashkil etish.

Milliy urf-odatlarimizni, an`analarimizni tiklashda va mazmunini boyitishda Mehribonlik uylari jamoasi, maktab ma`muriyati, ota-onalar qumitasining a`zolari va faol o'smirlar bilan birgalikda tadbirlar o`tkazish. Mehribonlik uyidan chiqdan elga mashxur shaxs larning muzeylarini tashkil k,ilish.

Mehribonlik uylariga otaliq, tashkilotlar modiy yor dam berishlari bilan birga, o'smirlar va bolalarni ma`na viy jhatdan rag`batlantirib, yordam berib turishadi. Ota-lik, tashkilotlar oldiga kuyilgan vazifalar, ularni islox talabi asosida mehribonlik uylari ishining tashkil etilishi va rivojlanishida ishtirok etishlari kursatilgan

Mehribonlik uylarining taomiri, ularning extiyoji uchun ba`zi bir moddiy yordamni berish bilan kifoyala nar edilar. Endilikda esa otaliq, tashkilotlar shartno ma asosida ishlamoqdalar. SHartnomaga kura, Mehribonlik uylarini otaliqqa olgan tashkil ot bu yerdagi o'smir yoshlarni kasbga yunaltirish, ularning ijtimoiy foy- dali

ishlab chiqdrish mexnatlarini tashkil k,ilish bo rasida shart-sharoitlarni yaratib berishyapti.. Endi bu muassasaning nafaqat xududi kengaydi, balki u sport maydoni va uyingoxdariga ham ega buldi. .

SHu o`rinda Prezidentimiz I.A. Karimov tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan xayrli ishlar va tadbirlar ning ahamiyatini ham eytib utmoq, zarur. Bu tadbirlar orasida Prezidentimizning 1993 yil 4 mart Farmoniga muvofik,, onalik va bolalikni muxofaza kdlish, yosh avlod salomatligini mustaxkamlash, unga vatanparvarlik va o`z Vatani — Uzbekistonga mehr-muxabbat tuygusini singdirish ishidagi, bolalar manfaatleri yulida xayriya faoliyatini rivojlantirishdagi faol ishtirok etgani uchun „Solom avlod uchun" nishonining tavsiya etil ganligi, shuningdek, 2000 yil „Sog`lom avlod yili" deb eolon klinishi munosabati bilan qabul qlingan „Cog`lom avlod" davlat Dasturi qabul qlinganligi ham katta ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyatga molik ishlardir. Bu tadbir xar bir Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisida cog`lom, baquvvat, aqlli bolaning tarbiyalanishi lozimli gini va bu borada respublikamiz xukumati olib borayotgan siyosatning xalqchil ekanligiga yorqin misollardir. Otalik, tashkilotlari kumagida tarbiya va xar xil kasb larga oid tugaraklar tashkil etish ham maqsadga muvofiqdir. „Salomatlik", „SHaxsiy gigiena", „Uzbek xalq ertaklari", „Uzbek xalq ko`shiqlari", „Marifatnoma", „Odobnoma", „Ruxshunoslik „Markaziy Osiyo adabiyoti tarixi", „Adabiy yodgorliklar bilan tanishish" kabi kechalar, o`tkazish maqsadga muvofik, bo`lar edi.

Jaxon taraqiyyoti tarixidan shu narsa ma`lumki, barcha rivojlangan mamlakatlar o`z yutuqlari bilan birga, dunyo xalqlari yutuqlarini egallab, takomillashtirgandagina o`lkan muvaffaqiyatlarga erishganlar. SHuning uchun ham Mehribonlik uylari o`smir larining eng qodiliyatlilari davlat va nodavlat, ota-

lik, tashkilotlar yordami bilan chet ellarda uqitilsa, u yerdagi madaniyat, fan-texnika yutuqdarini egallab, ozod Vatanimiz taraqiyyotiga xissa qushuvchi farzandlarga aylanadilar. „Toki, yurtimiz guzal, fayzli, erkin va ado latli yurt bulsin. Toki bizdan elga foydali yodgorliklar qolsin. Toki bizdan olis avlodlarga ozod va obod Vatan qolsin!.. Obod bulsin yurtimiz, shod bulsin kunglimiz!" — deydi Prezidentimiz I.A. Karimov1.

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi o'smirlarining milliy gururini tarbiyalash borasida otaliq, tashkilotlarning qiladigan ishlari quyidagilardan iborat:

Mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan o'smir yoshlarni atrof-muxitni tugri idrok qilishda, milliy va umum- insoniy qadriyatlar ruxida tarbiyalashda, ularga kamtarlik, olijanoblik, g'amho'rlik, mexnatsevarlik, muruvatlilik xislarini shakllantirishda tarbiyachilarga yordam kursatish;

tarbiyasi og'ir o'smirlar bilan ishlash, ularni foydali mehnatga jalb qilish, tugaraklarga katnashishlarinli, xunarmandchilikka urganishini ta'minlash, tarbiyasi og'ip o'smirga jamoatchilik faollarini biriktirish, vaqti-vaqti bilan ularning hisobotini tinglash ham yaxshi natija beradi;

Mehribonlik uylari o'smirlarida nafosat olamini tugri tasavvur qilish va shakllantirish uchun milliy urf-odatlar, azaliy udumlar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan unumli foydalanish. Mehribonlik uyi, maktab, mahalla axli, otaliq tashkilotlar hamkorligida tadbirlap (bayramlar, hasharlar, xotira kuni, Navruz, xosil bayrami va boshqalar) utkazish;

mahallalarda xunarmandlar faolligida tarbiyalanuvchi o'smirlarni milliy kashtachilik, zarduzlik, ustachilik va boshqa milliy xunarlarni egallashlari uchun sharoit yaratish;

mahalla qumitasi xotin-qizlar uyushmasi bilan bir galikda qizlar tarbiyasi, ularni sharon oilaviy hayotga tayyorlash uchun tadbirlar belgilash;

odobli tarbiyalanuvchilarni otaliq, tashkilotlar va mahalla kumitalari bilan hamkorlikda takdirlash.

Mehribonlik uylarining maktab va jamoatchilik, otaliq, tashkilotlar bilan hamkorligi hozirgi kunda juda dolzarbdir. Chunki Mehribonlik uylarining maktab, jamoatchilik va otaliq, tashkilotlar bilan hamkorligining o'zi murakkab jarayon bulib, bunda tarbiyachi-pedagoglardan tashari, ishlab chiqarish jamoalari vakillari, yoshlar, kasaba uyushmalari ishtirok etadilar. Hozirgi kunga kelib, jamoatchilikning tarbiya borasidagi usullari, shakllari va mazmunlari boyib bormoqda. Jumladan, Mehribonlik uylari o'smirlarini va maktab uquvchilarini ragbatlantirish maqsadida

stipendiya berish yoki tarbiyasi og'ir bo'lgan bolalarga moddiy va maonaviy kumaklashuvda tadbirkor tashkilotlarning yordami kuchaymoqda. Bu borada „Bolalar jamgarmasi“, „Sog'lom avlod uchun“ jamgarmalarining faoliyati samaralidir.

Demak, Mehribonlik uylari, mahalla ko`mitasi, maktab va otalik, tashkilotlarning hamkorligi Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o'smirlarning milliy g`urur tuygusini shaklantirishda va vatanparvarlik sifatlarini kamol toptirishda tarbiyachi-pedagoglarning tashkilotchiliklari muammoni ijobiy xal etuvchi omil hisoblanadi.

Bu borada Prezidentimiz I.A. Karimov shunday yozadi: „Ham davlat, ham ijtimoiy tashkilotlar, yangi paydo bulayotgan birlashmalar va jamgarmalar o`z kuchlarini mu jassamlashtirib, bir yoqadan bosh chiqarib, mahalla, maktab, oila harakatlarini amalga oshirishda jismonan baquvvat, axloqan yetuk, ruxan sog'lom avlod tarbiyalashda hech qanday kuch va mablag`ni ayamasliklari kerak"1. Bu fikr lar bevosita Mehribonlik uylariga ham tegishlidir

## **UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR.**

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov aloxida takidlaganidek, mehr-muruvvat, mehr oqibat, yurtimizda tinch-totuvlik, yetim-esirlar, nogironlar, qarovsiz va muxtoj kishilar ximoyasini tashkil qilishdan iboratdir.

Jadal olib borilayotgan kuchli ijtimoiy siyosat ajyudlarim izdan meros bulib dolgan milliy qadriyat va anoanalar, urf-odatlar, muqaddas islomiy qadriyatlar, asrlar davomida shakllanib kelayotgan iqtisodiy-ijtimoiy pedagogik qarashlarni qiyosiy urganish va chuqur taxlil qilish, shuningdek, unga yangi zamonaviy ijtimoiy muam molarni tatbik, etish orqqli vujudga kelgan fikrlarni singdirish asosida yaratilganligi bilan kimmatlidir.

Yurtboshimiz raxnamoligida yaratilgan bu siyosat Mehribonlik uylariga ham bevosita daxldor. CHunki, bu davlat muassasasida yetim-esirlar, ota-onasi qarovidan maxh rum bo`lgan bolalar yashaydilar va tarbiyalanadilar. Ularning moddiy, ta`lim va tarbiyaviy ta`minoti, xullas, barcha extiyojlari davlat hisobidan amalga oshiriladi.

Shuning uchun Mehribonlik uylaridagi tarbiyalanuvchilar Vatanidan, xalqidan, xukumatidan, uning Prezidenti g`amho`rligidan faxrlanadilar, ularga e`tiqod quyadilar. Shu etiqod va faxr-iftixor tuygulari milliy g`urur sifatida shakllanadi.

Shunday ekan, Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o`smirlarda milliy g`ururni tug`ri shakllantirish va tar biyalash bugungi kunning asosiy maqsadi va muqaddas va zifasidir. Darxaqiqat, ijtimoiy-pedagogik, manaviy- marifiy, diniy- axloqy, madaniy-estetik va jismoniy tarbiyaning milliy istiqdol goyasi asosida tashkil kili nishi milliy gururni shakllantirishga xizmat kiladi.

Mustaqillik davridagi isloxrtlarning birinchi bosqichida butun xalqni, asosan, yosh avlodni manaviy- axloqiy jixatdan yetuk insonlar uilib tarbiyalashda ko`zda tutilgan maqsadlarga erishildi. Bu davrda yosh avlod milliy qadriyatlar va an`oanalarning tub mohiyatini tushundi. Utmishda ajdodlarimizning jaxon fani ravnaqiga qushgan buyuk taolimoti bilan yaqindan tanishdi. Boshqa cha aytganda, yosh avlod o`zligini angladi.

Isloxotlarning ikkinchi bosqichida, yosh avlod uzligini anglash natijasi ularok,, manaviy-axloqiy, diniy-axloqiy, madaniy-estetik, ma`naviy-ma`rifiy, xuquqiy va jismoniy jihatdan qarashlari chukurlasha boshladi. Bu jarayonda Uzbekistan Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlarida ilgari surilgan pedagogik goyalar hamda milliy istiqlol goyasi muhim o`rinni egalladi va shu goyalar pedagogik-metodologik yunalishni ko`rsatib berdi.

Yurtboshimiz mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab „Avval iqtisod, keyin siyosat" degan xalqparvar shiorni urtaga tashladi. Va ayni chog`da, bu hikmatli fikr isloxotning turtinchi — Kuchli ijtimoiy siyosat tamoyi lida o`z ifodasini topdi. Unda yetim-esirlarni har tomon lama muxofaza kilish asosiy o`rinni egallagan edi.

Darhaqiqat, Mehribonlik uylarida ta`lim-tarbiya ravnaqi, o`smirlarning milliy gururini tarbiyalash va yuksaltirish singari ijtimoiy-pedagogik vazifalarni amalga oshirishda kuchli ijtimoiy siyosat yaratib bergan imkoni yatlar salmog`i katta bo`lib, tarbiyaviy ishlar yo`qoridagi masalani sifatli xal qilishga yunaltirildi. Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o`smirlarning milliy gururini shakllantirish, tarbiyalash va takomil lashtirish jarayonlarini puxta tahlil qilish, shu muhim muammoni hal etish maqsadida o`tkazilgan didaktik tajribalar shuni kursatdiki, o`smirlarda e`tiqod, vatanparvarlik, xalqparvarlik, mardlik va jasurlik, milliy tafakkur, metin iroda, kuchli xotira va milliy tuygular orqali vujudga keladigan milliy g`ururni tarbiyalashda milliy kadriyat va an`analar, urf-odat va udumlar, ta rixiy xalq; qaxramonlari va davlat arbohlari faoliyati, xalq, ogzaki ijodi, adabiyot va sanoat, hozirgi mustaqil lik davrida sodir bulayotgan olamshumul voqea va xodisa lar, darslar va darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar iedagogik-psixologik omil va vositalar sifatida muhim rol o`ynaydi.

Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o`smirlarning milliy gururini shakllantirishda ularning oila muhitida tarbiyalanuvchi, ota-onasi bagridagi bolalardan farqlaydigan botiniy tuygularini, ma`naviy-ruxiy holat larini va feol-atvorlarini o`rganish muhimdir. SHu ilmiy va amaliy jarayonlar davomida milliy gururni tarbiyalash kabi dolzarb va maqsadli vazifani amalga oshi rish ma`naviy-ruhiy, ma`naviy-axlodiy, madaniy-estetik, pedagogik-psixologik, didaktik tarbiya

bilan bevosita bog`liqdir. Bu esa, o`z navbatida, tarbiya mazmunini boyitishga xizmat qiladi.

SHuningdek, umumta`lim maktablari o`quvchilari bilan Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o`smirlarning ruhiy kechinmalari urtasida tafovutlar mavjud. SHu tafovutlarni imkoni boricha bolalarga eslatmaslik uchun Pedagoglar tomonidan o`tkaziladigan turli-tuman pedagogik tadbirlar muhim ahamiyatga egadir.

Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi o`smirlar shuuriga milliy istiqlol goyasi asosida milliy Fypyp tushunchasini singdirish hozirgi davrning muhim va zaruriy talablaridan biri hisoblanadi. Bu siyosiy-pedagogik, ma`naviy-mafkuraviy vazifani amalga oshirishda pedagoglarning pedagogik maxorati asosiy o`rinni egallaydi. Pedagoglar bu ishlarni dars jarayonida va darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar orqali amalga oshiradilar. Shuning uchun ular o`smirlar ruhiga milliy g`ururni singdirish ijodkoridirlar.

O`smirlar bilan muomala -munosabat odobini egallashlari shuningdek pedagogik mahoratini muttasil oshirib borishi muhimdir.

Mehribonlik uyi bilan otaliq tashkilotlar davlat va nodavlat tashkilotlar, madaniy-oqartuv muassasalar, mahalla jamotchilik o`rtasidagi mustahkam aloqalar o`smirlarda milliy g`ururni oshirish hodisasidir

### **Tavsiyalar**

Bitiruv malakaviy ish natijalari quyidagi tavsiyalarni taqdim etishga imkon berdi.

1. Mehribonlik uylaridagi o`quvchilarda milliy g`urur xissini shakllantirishda ajdodlarimiz qoldirgan ulkan ma`naviy meros, asrlar davomida to`plagan milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an`analardan foydalanishga erishish.

2. O`quvchilarda milliy g`urur xissini shakllantirishga doir bilimlar mazmunini boyitish.

3. Mehribonlik uylaridagi o`quvchilarda milliy g`urur hissini shakllantirishda mehribonlik uylari va otaliq tashkilotlarining hamkorligini o`rganish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi . T. „O'zbekiston “ , 1993, 16- 17-betlar. O'sha joyda , 21-bet.
2. Ozbekiston Respublikasining „ Ta'lim to'g'risida’’gi Konuni. „Marifat’’ gazetasi , 1992-yi
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1995- yil 18-fevraldagi 59-sonli Qaroriga 3-ilova, „Mehribonlik uyi to'g'risida Nizom’’ , „Ma'rifat’’ gazetasi , 1995-yil, 29-mart
4. Vazirlar Maxkamasining 1985-yil 18-fevraldagi 59-sonli qaroriga ilova,„Mehribonlik uyi to'g'risidagi Nizom “ „Ma'rifat “ gazetasi, 1995-yil, 29-mart.
5. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li . T. „O'zbekiston’’ , 1992 yil
6. Karimov I.A. „Xalqimizning otashqalb farzandi ” .T. „O'zbekiston’’ ,1992-yil 28-bet. To`raqulov E.va boshqalar. „Abu Rayhon Beruniy ruhiyat va ta'lim –tarbiya haqida” . T. „O'qituvchi” , 1992-yil 39-bet.
7. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo`nalishlari. T. “O'zbekiston “ , 1993,41-bet.t
8. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi . T.„SHarq’’ nashriyot-matbaa konserni. 1999-yil 16-bet.
9. Abu Muso Termiziy. Sahihi Termiziy. xadislari. Toshkent ,G. G`ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti , 1993-yil 44-bet. O'sha asar 45-bet. Uvatov Ubaydulla. Donolardan saboqlar . Toshkent, A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti , 1994-yil, 27-bet.
10. Az-Zamaxshariy. Nozik iboralar tarjimon va sharhlar muallifi U.Uvvatov. T., „Kamalak’’ , 1992-yil 63-bet.
11. Alisher Navoiy . Mahbub –ul qulub . Toshkent , G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1983-yil 86-bet . Safo Ochil . Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari O'zbekiston Respublikasi Prizidenti, akademik I.A. Karimov asarkari misolida . T.„O'qituvchi “ 1997,43-44-b

12. Al-Beruniy . Tarvihalar „Javohirot” kitobidan . T. „Meros ” , 1991,44-bet
13. Axloq-odobga oid xadis namunalari . „Fan” , 1990, 56, 98, 151-betlar
14. Ahmad Yassaviy . Devoni hikmat ,G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, T., 1992, 21-22-betlar.
15. Jonmatova . X . „Abu Ali ibn Sino ta’lim –tarbiya to`g`risida „T.,„O`qituvchi ” ,1980-yil 23-bet. Ochilov M. „Muallim –qalb me`mori”. T. „O`qituvchi” , 2001-yil 58-bet.
16. Ochilov M. „Muallim -qalb me’mori”. „O`qituchi” , 2001-yil 56-bet.
17. Rahimov J.,„Turonning sheryurak bahodirlari” , T. „O`qituvchi” ,1999-yil 133-bet.
17. Safo Ochil . Mustaqillik ma’naviyati va tarbiya asoslari O`zbekiston Respublikasi Prizidenti , akademik I.A.Karimov asarlari misolida , T. ,, O`qituvchi ‘, 1987-yil 48-bet.
18. Qayumov B. „O`zbekistonda maktabdan tashqari bolalar tarbiyasi muassasalari faoliyatining pedagogik asarlari” AKD,T , 1993,2-4-betlar
19. „Qadimiy hikmatlar” , T.G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti , 1987 –yil 75-bet.
20. Tohir Usmon “Mehribonlik uyimiz” T: “Cho`lpon nashriyoti”1998.126 bet.
21. “Boshlang`ich ta’lim” T: 11 –son,2011. 32 bet.
22. Ziyomhammadov Bo’ri “Pedagogik mahorat asoslari”.T:“TIB-KITOB” 2009.183 bet

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3-7</b>
<b>I BOB.MEHRIBONLIK UYLARI TARBIYALANUVCHILARIDA MILLIY G`URURNI TARKIB TOPTIRISH VA TARBIYALASHNING O`ZIGA XOS PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI.</b>	
I.1. Mehribonlik uylariga g`amho`rlik kuchli ijtimoiy siyosatning negizi sifatida. ....	8-25
I.2. Mehribonlik uylaridagi tarbiyalanuvchilarda milliy g`ururni shakllanirishning pedagogik omillari. ....	26-38
<b>II.BOB.MEHRIBONLIK UYLARIDAGI O`QUVCHILARDA MILLIY G`URURNI SHAKLLANTIRISHNING SHAKL VA USULLARI.</b>	
2.1. O`quvchilarda sharqona an`analar asosida milliy g`ururni tarbiyalash.....	39-53
2.2. O`quvchilarda milliy g`ururni tarbiyalashda mehribonlik uyi bilan otaliq tashkilotlarning o`zaro hamkorligi. ....	54-61
<b>XULOSA VA TAKLIFLAR. ....</b>	<b>62-64</b>
<b>ADABIYOTLAR RO`YXATI. ....</b>	<b>65-66</b>